

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

MELIKOVA MARTABA NUMONOVNA

**ALISHER NAVOIY MA'NAVIY MEROSINING IJTIMOY-FALSAFIY
MOHIYATI**

09.00.03 - Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора наук (DSc)

Content of the Doctoral (DSc) Dissertation

Melikova Martaba Numonovna

Alisher Navoiy ma'naviy merosining ijtimoiy-falsafiy mohiyati..... 3

Меликова Мартаба Нумоновна

Социально-философская сущность духовного наследия Алишера Навои 31

Melikova Martaba Numonovna

Socio-philosophical essence of the spiritual heritage of Alisher Navoi 61

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works

Список опубликованных работ..... 65

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

MELIKOVA MARTABA NUMONOVNA

**ALISHER NAVOIY MA'NAVIY MEROSINING IJTIMOY-FALSAFIY
MOHIYATI**

09.00.03 - Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.DSc/Fal18 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Shodiyev Rustam Toxirovich**
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Shodmonov Qurbon Badriddinovich**
falsafa fanlari doktori, professor

Madayeva Shaxnoza Omonullayevna
falsafa fanlari doktori, professor


Safarova Nigora Olimovna
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs. 03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2023-yil "09" iyun soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel: (0366) 239-13-87; faks: (0366) 239-11-40, 239-1892; faks: (0366) 239-11-40; emil: rektor@samdu.uz. Samarqand davlat universiteti, Tarix fakulteti, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 77 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (0366) 239-13-87; faks: (0366) 239-11-40.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "26" may kunida tarqatildi.
(2023-yil "22" may dagi 77 raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.Sh.Negmatova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

X.A.Djurakulov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.R.Samadov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ijtimoiy hayotning ma'naviy va axloqiy asoslarini rivojlantirish bo'yicha global o'zgarishlar yuz berayotgan davrda insonning ongini, qalbini egallash uchun ma'naviy kurashlar olib borilmoqda. Shu sababdan hozirgi davrda xalqlarning chinakam beqiyos ma'naviy boyligi hisoblanmish ilmiy merosiga asoslangan milliy va etnik o'ziga xoslikni takomillashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Insoniyat bunday jarayonlardan bunyodkorlik va taraqqiyot uchun zarur bo'lgan cheksiz kuch-quvvatni olishga qodir bo'ladi. Jahon hamjamiyati oldida ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va barqaror tinchlik konsensusi konsepsiyalarini ishlab chiqish masalasi kun tartibidagi asosiy mavzulardan hisoblanmoqda. Millatlararo totuvlik, ijtimoiy hamkorlik, diniy bag'rikenglik va butun dunyo hamjamiyati bilan do'stona ittifoqlik strategiyasini ishlab chiqishda zamonaviy ijtimoiy fanlar, jumladan, antropologiya va falsafa fani yutuqlaridan oqilona foydalanishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar rivoji, tinchlik, ma'rifatparvarlik, diniy bag'rikenglik, insonparvarlik, ma'naviyat va ilm-fan g'oyalarini targ'ib etishga ulkan hissa qo'shgan mutafakkirlarning ma'naviy merosiga murojaat etish va uni yoshlar ongiga singdirish mexanizmlarini aniqlash zaruriyatini ko'rsatmoqda.

Jahon ilm-fanida Sharq mutafakkirlarining ontologiya, gnoseologiya, antropologiya, jamiyatdagi o'zaro munosabatlar, shaxsning ekzistentsial tabiatini tushunish, individlarning ijtimoiy mavjudligi, baxtga erishish yo'llari kabi muammolarni qamrab olgan falsafiy merosini o'rganish va qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan keng ko'lamlil ilmiy, nazariy hamda amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, Yevropa va AQSHning yetakchi universitetlarida amalga oshirilgan tadqiqotlarda Markaziy Osiyoning buyuk mutafakkirlari qatorida Alisher Navoiyning gumanistik, ontologik, aksiologik qarashlarini umuminsoniy qadriyatlarning substansional komponentlari determinant jihatlarini o'rganishga, inson ongi va dunyoqarashini o'zgartirishga oid antropologik qarashlarini konstruktiv rolini asoslashga o'rinishlar ko'zga tashlanmoqda. Shu jihatdan Alisher Navoiyning insonparvarlik konsepsiyasidagi bag'rikenglik, o'zlikni anglash, ruhiy-ma'naviy uyg'unlikka intilish kabi g'oyalarini bugungi globallashtirgan postmodern sotsiumda yoshlar mafkuraviy immunitetini shakllantirishdagi beqiyos ahamiyatini ilmiy tadqiq etish ob'yektiv zaruratga aylanmoqda.

Mamlakatimizda hozirgi kunda Alisher Navoiy ma'naviy merosini o'rganish va targ'ib etish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. "Buyuk shoir va mutafakkir, atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning bebaho ijodiy-ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o'rin tutadi".¹ Shuning uchun mutafakkirning asarlaridagi altruizm, filantropiya va insonparvarlik tamoyillarini yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini zamonaviy falsafiy

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 19 октябрдаги "Буюк шоир ва мутафаккир Алишер Навоий таваллудининг 580 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида"ги ПҚ-4865-сон қарори. //Халқ сўзи. № 219 (7690) 20.10.2020.

yondashuvlar asosida ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish zarurati vujudga kelmoqda. Mutafakkirning jamiyatdagi tinchlik va barqarorlik orqali individning baxt va farovonlikka erishishi davlatning ijtimoiy-siyosiy modeli o'zagi ekanligi to'g'risidagi g'oyalari bevosita o'sha davrdagi ijtimoiy konsepsiyalar ta'sirida ishlab chiqilgan. Hozirgi davrda yoshlar ongida individualizm, egosentrizm va vandalizm kabi g'oyalar xuruji, milliy qadriyatlarni qayta baholash muammosi dolzarb bo'lib turgan bir paytda Alisher Navoiyning ma'naviy merosini o'rganish, tadqiq va targ'ib etish kun tartibidagi dolzarb masalalardandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 30 iyundagi PF-6017-son "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 6 noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 24 maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 12 maydagi PQ-3721-son "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida" va 2020-yil 19 oktyabrdagi PQ-4865-son "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580-yillicini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorlari hamda mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.¹

Markaziy Osiyoning buyuk mutafakkiri Alisher Navoiyning hayoti va ijod yo'li, asarlaridagi ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy-axloqiy tarbiya, shaxs ma'naviy fazilatlarini o'rganish borasidagi ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Oxford University (Buyuk Britaniya), 北海道大学 (Yaponiya), Bonner Universität (Germaniya), Институт востоковедения Российской Академии Наук, Московский Государственный Университет, Санкт-Петербургский Государственный Университет, Казанский федеральный университет (Rossiya), Institut d'études d'Asie centrale

¹ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: <https://www.cambridge.org/core/journals/inventing-a-national-writer-the-soviet-celebration-of-the-1948-alisher-navoi-jubilee-and-the-writing-of-uzbek-history> | International Journal of Asian Studies | Cambridge Core; <https://azertag.az/ru/xeber>; <http://www.orientalstudies.ru/>; <https://greylib.align.ru/453/>; <https://portalus.ru/modules/shkola/rus/>; (PDF) Alisher Navoi - about the State and its Governance(researchgate.net); https://www.academia.edu/5894753/Materialist_Ideology_Facing_a_Great_Sufi_Poet_the_Case_of_Ali_Shir_Nawai_ va boshqa manblar asosida amalga oshirilgan.

(Fransiya), تهران دانشگاه (Eron), Ankara Üniversitesi, İslam Araştırmaları Enstitüsü (Turkiya), Qazaqstan Ұлттық университети (Qozog‘iston), Bakı Dövlət Universiteti (Ozarbayjon), Institute of Islamic Studies (Kanada), shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, O‘zbek tili, adabiyoti va folklor instituti, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida (O‘zbekiston) buyuk mutafakkirning ma’naviy merosiga oid keng ko‘lamli ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Dunyoda Alisher Navoiy ma’naviy merosini ilmiy tadqiq qilish jarayonida quyidagi ilmiy natijalar olingan: Alisher Navoiyning Sharq falsafiy tafakkuridagi o‘rni qiyosiy tahlil qilingan (Oxford University, Buyuk Britaniya); Alisher Navoiyning tarjimai holi, u yashagan davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot, adabiy muhitni o‘rganishga oid ma’lumotlar katalogi yaratilgan (北海道大学, Yaponiya); Alisher Navoiy ma’naviy merosining badiiy-estetik xususiyatlari tahlili amalga oshirilgan (Bonner Universität, Germaniya); Alisher Navoiyning adabiy, epik, biografik merosidagi badiiy rang-barangliklarning falsafiy, ijtimoiy-ma’naviy xususiyatlari aniqlangan (Институт востоковедения Российской Академии Наук, Московский Государственный университет, Санкт Петербургский Государственный университет, Казанский федеральный университет, Россия); buyuk mutafakkirning asarlarida tabiat va jamiyatdagi jarayonlarning dialektik aloqadorligi falsafiy jihatdan maxsus o‘rganilgan (Institut d'études d'Asie centrale, Fransiya); Alisher Navoiyning ma’naviy merosida diniy va dunyoviy g‘oyalarni uyg‘unligi tadqiq etilgan (تهران دانشگاه, Eron); mutafakkir asarlarida ilgari surilgan inson muammosi evolyusiyasiga doir ilmiy-nazariy g‘oyalarning konseptual ahamiyati ishlab chiqilgan (Ankara Üniversitesi, İslam Araştırmaları Enstitüsü, Turkiya); Alisher Navoiy ma’naviy merosining ijtimoiy-falsafiy tahlili va ma’naviy-axloqiy mohiyati yoritilgan (Qazaqstan Ұлттық университети, Qozog‘iston); Alisher Navoiy asarlari syujeti kompozitsiyasining ijtimoiy-axloqiy va poetik xususiyatlari umumlashtirilgan (Bakı Dövlət Universiteti, Ozarbayjon); Sharq mutafakkirlari ilmiy merosining islom falsafasidagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan (Institute of Islamic Studies, Kanada); Alisher Navoiy ma’naviy merosi manbalarining falsafiy mohiyati ijtimoiy-falsafiy fanlar va lingvofalsafa doirasidagi tasavvufiy xususiyatlari isbotlangan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti, O‘zbekiston).

Dunyoda Alisher Navoiy ma’naviy merosini ijtimoiy-falsafiy mohiyati va ahamiyati bo‘yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: Alisher Navoiy ma’naviy merosida epistemologiya va ontologiya muammolari; buyuk mutafakkirning axloqiy va estetik qarashlarining falsafasiy mohiyati va ahamiyati; Alisher Navoiy ilmiy merosini o‘rganishda germenetik yondashuvning falsafiy mohiyati; mutafakkir asarlarida aql va bilish muammolari; Alisher Navoiy ijtimoiy falsafasining tarixiy mohiyati hamda ahamiyati; Alisher Navoiy ma’naviy merosining mamlakat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi

ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy sohalarni takomillashtirishdagi bugungi kundagi ahamiyatini ochib berish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Alisher Navoiy ijodiy faoliyatidagi dastlabki obrazlari va uning ijtimoiy-falsafiy qarashlari turli tarixiy hamda memuar asarlarida bayon etilgan. Jumladan, Husayn Boyqaroning "Risola", Abdurahmon Jomiyning "Haft Afrang", "Yusuf va Zulayho", "Devoni Komil", tarixchi Mirxondning "Ravzat us-safo", tarixchi Xondamirning Alisher Navoiyga bag'ishlangan "Makorim ul-ahloq", Zayniddin Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoye", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarlarida buyuk mutafakkirning shaxsi va boy ilmiy merosi tavsiflangan. Husayn Boyqaroning "Risola" va Zahiriddin Muxammad Boburning "Boburnoma" risolalarida shoir yaratgan obrazlarning turkiy tilda ilk bor nashr etilgan adabiy-badiiy mohiyati tadqiq etilgan.

Mutafakkir ijodini o'rganish bo'yicha XVII asrning boshlarida gruzin shoiri Tsitsishvili, fransuz olimi A.d'Erbelo, keyingi asrlarda esa Silvestr de Sasi tomonidan bir qator tadqiqotlar olib borildi. Alisher Navoiy ma'naviy merosini o'rganish bo'yicha dastlabki ishlar shoirning o'zi hayotlik chog'laridayoq boshlangan bo'lsada, ammo asarlarining tizimli tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlar XIX asrdan amalga oshirildi. Shu o'rinda aytish joizki, shu mavzuga doir tadqiqotlarni uch guruhga ajratish mumkin:

Birinchi guruh. Bu guruhga jahon miqyosida Alisher Navoiyning hayoti va ijodini tadqiq etgan xorijlik olimlarni kiritish mumkin. XIX asrning birinchi yarmidan boshlab Yevropa davlatlarida Alisher Navoiy asarlarini nashr qilish va tadqiq etishga qiziqish kuchaydi. Ko'pgina yevropalik olimlar mutafakkirning ma'naviy merosini alohida qiziqish bilan o'rgana boshladilar. Bunday olimlardan Kartmer, Pave de Kurteyl, Ogaha Siri Levenda, I.N.Berezin, M.Nikiskiy¹, V.V.Vilyaminov-Zernov, Ye.E.Bertelslar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarni alohida ta'kidlash lozim. Ingliz olimlaridan Charlz Rio, E.Braun, vengriyalik tadqiqotchi X.Vamberi, sharqshunoslar Belen, Bloshe, Ahmad Otash, arabistonlik tadqiqotchi Ahmad ibn Ali Damaskinlar tomonidan navoiyshunoslik sohasida olib borilgan tadqiqotlar ham katta ahamiyatga ega. Alisher Navoiy asarlarining ilmiy tadqiqi va tarjimalari ingliz olimlari M.Sabtel, V.Feldman, D.Gench-Turk, D.Devin, K.Adaxl, G.Dik, N.Uolmsli², fransuz olimlari L.Aragon³, M.Toutan⁴, A.Papaslar olib borgan ishlarda yanada rivojlantirilgan. Alisher Navoiy ijodi bilan bog'liq bo'lgan turkiy she'riyat va adabiyotning tarixini o'rganish doirasida F.Ko'pruli, M.Chovusho'g'li, N.Tarlan, K.Eraslan, M.Eson olib borgan tadqiqotlarni qayd etish lozim. Turk olimi Y.Chetindog'ning "Alisher Navoiy va Usmonli she'riyati" nomli asari xorijda navoiyshunoslik sohasidagi olib borilgan tadqiqotlar rivojida katta ahamiyatga egadir.⁵

¹ Никитский М. Эмир Низаматдин Алишер в государственном и литературном его значении. – СПб., 1856.

² Nicholas Gerard Walmsley. O Navā'ī!: imitation, innovation, and the invention of a Central Asian literary icon, 1500-1900. USA. Indiana University, 2016. – P. 345.

³ L.Aragon. Littératures soviétiques. Paris. Denoel, 1955. – P. 95.

⁴ Toutant Mark. Materialist Ideology Facing a Great Sufi Poet: The Case of Ali Shīr Nawā'ī in Soviet Uzbekistan; From Concealment to "Patrimonialisation" // – Orient. Vol. XLVI 2011. – P. 29-50.

⁵ Юсуф Четиндог. Алишер Навоий ва Усмонли шеърляти. – Muharrir, 2011. – Б.255.

Ikkinchi guruh. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlari ham navoiyshunoslik sohasi rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Jumladan, rus olimlari A.Krimskiy, V.V.Bartold, A.A.Semenov, L.Klimovich, A.N.Borovkov, Ye.E.Bertels, shuningdek, Ozarbayjon olimlari S.A.Mamedov, A.I.Agayev, L.A.Aliyev, J.Nagiyeva¹ asarlari Sharq, Markaziy Osiyo she'riyati bilan uzviy bog'liqdir. Alisher Navoiyning falsafiy-ma'naviy merosi, ilg'or g'oyalari ko'pgina olimlar, jumladan, rus sharqshunosi Ye.E.Bertels asarlarining ham tadqiqot ob'yektiga aylanganligini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Sharqshunos olim birlamchi manbalarni qiyosiy tahlil qilish usuliga asoslanib, Alisher Navoiy boshqa shoirlarning taqlidchisi emas, balki o'zi ham "buyuk san'atkor, shu manbalardan asl asar yaratishga qodir so'z muallifidir"², degan xulosaga keldi.

Uchinchi guruh. Mamlakatimiz olimlari tomonidan ham navoiyshunoslik sohasida salmoqli tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, O.Sharofutdinov, S.G'aniyeva, Oybek, I.Mo'minov, M.Shayxzoda, V.Zohidov, P.Shamsiyev, I.Sultonov, E.Rustamov, A.Qayumov, A.Hayitmetov, M.Oripov³, B.Valixo'jayev, Ye.Isoqov, S.Erkinov, A.Rustamov, N.Mallayev, M.Mirzayev, X.Xayrullayev, H.Aliqulov, N.Komilov, D.Salohiy, Sh.S.Sirojiddinov, B.Eraliyev, I.Haqqul, K.Mullaxo'jayeva, E.Ochilov, A.O'rinboyev, M.Pardayeva⁴, T.Norov, B.Turobov⁵ kabi olimlar Alisher Navoiy ma'naviy merosining mazmun-mohiyati va hozirgi kundagi konstruktiv ahamiyati to'g'risida qimmatli fikrlar bildirishgan.

Xususan, V.Zohidovning "Navoiyning g'oya va obrazlar olami", E.Rustamovning "XV asrning birinchi yarmida o'zbek she'riyati", S.Erkinovning "Lutfiy (hayoti va ijodi)", N.Komilovning "Tasavvuf", "Tafakkur karvonlari. Sharqu G'arbning sivilizatsiyaviy aloqalari", Sh. Sirojiddinovning Navoiy ijodiy faoliyati haqidagi tadqiqotlari "Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili", "O'zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari" mutafakkir haqidagi birlamchi, ishonchli manba'larga asoslanganligi va chuqur tahlil qilinganligi bilan ajralib turadi.⁶

A.Navoiy ta'limotida ma'naviy, irfoniy-tasavvufiy qarashlar mustaqillikdan keyingi yillarda M.Boltaev, R.Shodiev, J.Xolmuminov, A.Zohidiy, R.Nosirov, M.Rajabova, G.Mahmudova, Z.Isaqova, Sh.Agzamxodjaeva kabi olimlar tadqiqotlarida aks etilgan.

Yuqorida nomlari qayd etilgan olimlarning amalga oshirgan tadqiqotlarida mutafakkirning ilmiy merosi, falsafa, til va adabiyot, manbashunoslik,

¹ Нагиева Ж. М. Бакинские рукописи Алишера Навои. – Баку: Элм, 1986, – Стр.136.

² Бертельс Е.Э. Наваи и Джамии. // Избранные труды. Т.3. – Москва: Наука, 1965. – Стр. 272.; Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература // Избранные труды. – Москва: Наука, 1965. Т.3. – Стр.523.; Бертельс Е.Э. Наваи и Аттар // Мир-Али-Шир: сб. к пятисотлетию со дня рождения. Л.: Изд-во АН СССР, 1928. Стр. 24–83.

³ Арипов М. Гуманизм Алишера Навои. – Ташкент: Узбекистан, 1991. – Стр. 223.; Арипов М. Философские и этические воззрения Алишера Навои. Автореферат канд. дисс. – Л., 1971. – Стр.13.

⁴ Пардаева М.Д. Алишер Навоий асарларида комил инсон гоёси. – Тошкент: Turon Ziyoi, 2016. – Б. 213.

⁵ Туробов Б.Н. Е.Э.Бертельс ижодида Алишер Навоий фалсафий-тасаввуфий қарашлари таҳлили. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Самарқанд, 2021. – Б.148.

⁶ Sirojiddinov Sh. Mir' Ali Shir Nava'i The GREAT. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – P. 148.; Sirojiddinov Sh. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. – Тошкент: Академнашр, 2011. – Б. 326.; Sirojiddinov Sh. Ислоҳ фалсафасига кириш: Калом илми. – Тошкент: Иқтисод-молия, 2008. – Б.11.; Sirojiddinov Sh. Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари / Монография. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – Б.200.

matnshunoslik, pedagogika nuqtai nazaridan yoritilgan. Shu jihatlarni inobatga olib, mazkur tadqiqot ishida Alisher Navoiyning ontologik, gnoseologik g'oyalari germenevtik, ekzistensial nuqtai nazaridan o'rganilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 2020-2022 yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston hududlaridagi tarixiy-madaniy an'analar va ularning zamonaviy ko'rinishlarini targ'ib etuvchi platforma yaratish" mavzusidagi PQ-2020022811 raqamli amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi Alisher Navoiy ma'naviy merosida ilgari surilgan ontologik, gnoseologik, axloqiy-estetik va ijtimoiy-siyosiy qarashlarining falsafiy mohiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Alisher Navoiy ma'naviy merosining O'rta asr Sharq falsafiy tafakkuri rivojida ahamiyatini yoritish;

Alisher Navoiy ijodida ontologik va gnoseologik muammolarining dialektik aloqadorlik xususiyatlarini ochib berish;

Mutafakkir ma'naviy merosini falsafiy germenevtika metodi asosida taxlil qilish;

Alisher Navoiy ma'naviy merosiga ekzistensial yondashuvning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochib berish;

Navoiy ma'naviy merosining mamlakat yoshlarida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va jamiyat ijtimoiy-siyosiy tizimini takomillashtirishga ta'sirini tahlil qilish.

Tadqiqotning obykti sifatida Alisher Navoiyning ma'naviy merosi tanlangan.

Tadqiqotning predmeti Alisher Navoiy ma'naviy merosining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ilmiy asoslash bilan belgilanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishida ilmiy bilishning analiz va sintez, kompleks va tizimli tahlil, ekzistensial usul, konseptual nazariyalarni qiyoslash, umumiylik va xususiylik, vorisiylik, tarixiylik va mantiqiylik kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Alisher Navoiy tasavvufiy qarashlarining gumanistik tabiati "ommaviy madaniyat", "axloqiy tanazzul" va turli diskursiv tahdidlarga qarshi kurashda mustahkam immunitetni shakllantirishning o'ziga xos omili ekanligi isbotlangan;

Murakkab tarixiy sharoitda Alisher Navoiyning halollik, to'g'rilik, adolat, insof va diyonat kabi bunyodkor g'oyalari turkiy xalqlar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashining yuksalishida asosiy rol o'ynagani mantiqan dalillangan;

Alisher Navoiyning ijtimoiy-falsafiy, diniy-irfoniy, ma'naviy-axloqiy qarashlari, insonning ruhiy kamoloti, insoniylik haqidagi g'oyalari yoshlarda kuchli qat'iyat, mas'uliyat va sabr-qanoatni shakllantirishda muhim asosga ega ekanligi falsafiy jihatdan asoslangan;

Alisher Navoiyning "Xamsa", "Mahbub ul-qulub", "Lison ut-tayr", "Hayratul-abror" va "Nasoyim ul-muhabbat" asarlarida qalb ekzistensiyasi, sog'lom qalb, qalb

pokligi masalasi “tavakkul”, “hikmat”, “tabsira”, “shukr”, “ofiyat”, “hayo” tushunchalari vositasida ifodalanganligi aniqlangan;

Alisher Navoiyning asarlarida ilgari surilgan ilm va odob-axloq uyg'unligi konsepsiyasi hamda xulq-atvor, sa'y-harakatlarning mushtarakligi g'oyasi komil inson shaxsini tarbiyalashda muhim omil ekanligi atributiv kategoriyalar (zohiriy va botiniy ilmlar zaruriyati) vositasida asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Alisher Navoiyning ma'naviy merosida insonlardagi ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish asosida barkamol shaxsni shakllantirish muammolarining nazariy va amaliy ahamiyati ko'rsatilgan;

Alisher Navoiyning inson va jamiyat ijtimoiy tabiatini chuqur o'rganishga asoslangan falsafiy qarashlari jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni uyg'unlashtirishi, hamjihatlik va dinlararo bag'rikenglikka ko'maklashishini aniqlanib, davlat va jamoat tashkilotlari faoliyati uchun uslubiy tavsiyalar taqdim etilgan;

Alisher Navoiyning ma'naviy merosiga asoslangan tarbiyaviy va targ'ibot ishlarni takomillashtirish yuzasidan konstruktiv taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tadqiqot ishi natijalari bo'yicha olingan xulosalar falsafa, axloqshunoslik, estetika kabi fanlarni o'qitish jarayoni uchun tavsiyalar ishlab chiqishga asos bo'lishi mantiqiy isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar, xorijiy jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalarda aks ettirilgan xulosalar, xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlarida hamda taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya tadqiqotida keltirilgan konseptual g'oyalar, umumiy xulosalardan falsafa, falsafa tarixi, etika, estetika, ijtimoiy falsafa sohasidagi ilmiy va uslubiy yondashuvlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiya tadqiqotida bayon etilgan taklif va tavsiyalardan o'zbek xalqining ma'naviy merosini targ'ib qilish, mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan jamoat tashkilotlarining ma'rifiy va targ'ibot ishlarida, mahallalar, davlat va jamoatchilik tashkilotlari amaliy faoliyati samaradorligini oshirishga, shuningdek, milliy-ma'naviy o'zbekona qadriyatlarni targ'ib etishga qaratilgan darslik hamda o'quv qo'llanmalarni tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Alisher Navoiy falsafiy merosining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tahlil qilish asosida:

Alisher Navoiy tasavvufiy qarashlarining gumanistik tabiati “ommaviy madaniyat”, “axloqiy tanazzul” va turli diskursiv tahdidlarga qarshi kurashda mustahkam immunitetni shakllantirishning o'ziga xos omili ekanligi isbotlanganligiga oid taklif-tavsiyalardan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida 2017-2020 yillarga mo'ljallangan “Temuriylar davrida

yaratilgan “Xamsa”larning komparativistik tadqiqi” mavzusidagi OT-F1-138 raqamli fundamental loyiha ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 2022-yil 9-iyundagi 10-2266-son ma’lumotnomasi). Natijada, yoshlar tarbiyasida turli diskursiv tahdidlarga qarshi kurashish ko’nikmasini hosil qilishga xizmat qilgan;

murakkab tarixiy sharoitda Alisher Navoiyning halollik, to’g’rilik, adolat, insof va diyonat kabi bunyodkor g’oyalari turkiy xalqlar ma’naviy-axloqiy dunyoqarashining yuksalishida asosiy rol o’ynagani mantiqan dalillanganligiga oid taklif-tavsiyalardan Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyining ekspozitsiyalarini “Alisher Navoiy hayoti va ijodi” bo’limini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi 2022-yil 9-noyabrdagi 3/1255-2826-son ma’lumotnomasi). Natijada, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyining “Alisher Navoiy hayoti va ijodi” bo’limida mutafakkirning halollik, to’g’rilik, adolat, insof va diyonat kabi bunyodkor g’oyalari haqida ma’lumotlarini to’ldirishga xizmat qilgan;

Alisher Navoiyning ijtimoiy-falsafiy, diniy-irfoniy, ma’naviy-axloqiy qarashlari, insonning ruhiy kamoloti, insoniylik haqidagi g’oyalari yoshlarda kuchli qat’iyat, mas’uliyat va sabr-qanoatni shakllantirishda muhim asosga ega ekanligi falsafiy asoslanganligiga oid taklif-tavsiyalardan O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklor institutida 2012-2016 yillarda “Alisher Navoiy (2 jildlik) va Abdulla Qodiriy qomuslarini yaratish” mavzusidagi bajarilgan FA-F1-G039 raqamli fundamental loyiha doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining 2022-yil 9-noyabrdagi 3/1255-2826-son ma’lumotnomasi). Natijada, Alisher Navoiy ma’naviy merosining o’rganilmagan jihatlarini ochib berishga va “Alisher Navoiy” qomusiy lug‘atini yaratishga xizmat qilgan;

Alisher Navoiyning “Xamsa”, “Mahbub ul-qulub”, “Lison ut-tayr”, “Hayratul-abror” va “Nasoyim ul-muhabbat” asarlarida qalb ekzistensiyasi, sog‘lom qalb, qalb pokligi masalasi “tavakkul”, “hikmat”, “tabsira”, “shukr”, “ofiyat” va “hayo” tushunchalari vositasida ifodalanganligini aniqlanganligiga oid taklif-tavsiyalardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2022 yilda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo’yicha chora-tadbirlar dasturining IV yo‘nalishiga oid Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va “Besh muhim tashabbus” doirasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarining “Ajdodlarga munosib voris bo‘laylik” nomli 18-bandini ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazining 2022-yil 28-iyundagi 02/02/1139-son ma’lumotnomasi). Natijada, yoshlar orasida qalb pokligi kabi ruhiy va axloqiy fazilatlarni targ‘ib qilishga xizmat qilgan;

Alisher Navoiyning asarlarida ilgari surgan ilm va odob-axloq uyg‘unligi konsepsiyasi hamda xulq-atvor, sa’y-harakatlarning mushtarakligi g‘oyasi komil inson shaxsini tarbiyalashda muhim omil ekanligi atributiv kategoriyalar (zohiriy va botiniy ilmlar zaruriyati) vositasida asoslanganligiga oid taklif-tavsiyalardan O‘zbekiston “Adolat” sosial-demokratik partiyasining 2022 yilga mo‘ljallangan yo‘l xaritasining 6-bandida ko‘rsatilgan “Ta’lim sifati – partiya nigohida” loyihasi doirasida ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, “Ajdodlar merosi ulug‘ qadriyat”

mavzusida turkum tadbirlar tashkil etish va buyuk ajdodlarimiz tarixini hamda ilmiy merosini o'rganish, yoshlar orasida turli madaniy va ilmiy mavzularda tanlovlar o'tkazish kabi dasturlarni amalga oshirishda keng foydalanilgan (O'zbekiston "Adolat" sosial-demokratik partiyasi Siyosiy Kengashining 2022-yil 31-maydagi 01-03/211-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlarda insonning ruhiy kamoloti, insoniylik va gumanizm haqidagi g'oyalarini yuksaltirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta xalqaro va 12 respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 40 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta monografiya va O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatida 19 ta ilmiy maqola (jumladan, 13 ta respublika va 6 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, o'n ikki paragraf, to'rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 259 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalar bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti va usullari yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalarining ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Alisher Navoiy falsafiy merosining nazariy-metodologik jihatlarini va g'oyaviy manbalari**" deb nomlanadi. Alisher Navoiyning ma'naviy merosi ko'plab faylasuf, sharqshunos va tilshunoslar tadqiqotlarining asosiy predmeti bo'lib, ular o'z ilmiy izlanishlarida mutafakkir bebaho merosining madaniy-ma'naviy mohiyatini boyitganlar. Buyuk shoirning hayoti va faoliyati, ijodini o'rganish masalalari bo'yicha dunyoning turli mintaqalarida bir qator fundamental tadqiqotlar olib borilgan. Shoir asarlari zamondoshlari tomonidan uning ma'naviy merosini o'rganish uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilgan.

Yevropada XVI asrdan boshlab shoirning ma'naviy merosini o'rganish va tadqiq etish bo'yicha dastlabki ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ularni tizimli tahlil qilish va o'rganish XIX asrning boshlariga borib taqaladi. Alisher Navoiy asarlarini tadqiq qilishni Kartmer, Pave de Kurteyl, Ogaha Sirri Levend, I.N.Berezin, M.M.Nikitskiy, V.V.Vil'yaminov-Zernov, Ye.E.Bertels kabi olimlar boshlab berganliklarini alohida qayd etish zarur, deb hisoblaymiz. O'zbek olimlaridan Oybek, B.Valixo'jaev, N.Mallaev, S.G'anieva, E.Shodiev, L.Xalilov, M.Xakimov, S.Vohidov, R.Vohidov, A.Rustamov, Sh.Hayitov, D.Salohiy, K.Ergashev, Sh.Sirojiddinov va boshqalar Alisher Navoiy ilmiy merosini o'rganishga katta e'tibor qaratganlar. Alisher Navoiyning ijodiy merosi, ilg'or

g'oyalari ko'pgina sharqshunos olimlarning tadqiqotlarida keng ko'lamda o'rganila boshlandi. Xususan, rus sharqshunosi Ye.E.Bertels ham mutafakkir asarlari tadqiqiga alohida e'tibor qaratdi. U o'zining ilmiy ishlarida Alisher Navoiy asarlaridagi ijtimoiy-falsafiy mavzularni tadqiq etishga ko'proq urg'u bergan. Alisher Navoiyning ma'naviy merosini alohida tadqiq etgan va bu borada salmoqli ishlarni amalga oshirgan Ye.E.Bertels Navoiy ijodiga yuksak baho berib, uning insonga bo'lgan buyuk muhabbatini olqishladi. Shu bilan birga, shoirning buyuk qalbini yoqqan, uning butun adabiy-ijtimoiy faoliyatiga asos bo'lgan insonga nisbatan cheksiz muhabbat "Layli va Majnun" asarida yaqqol namoyon bo'lganligini ta'kidladi.¹

O'zbekistonda Alisher Navoiyning ma'naviy merosini o'rganishga bo'lgan e'tibor 1930-40-yillarda boshlandi. Ammo o'zbek tadqiqotchilari o'sha davrdagi hukmron mafkura ta'sirida bo'lib, ko'pincha ulug' Navoiyning ijodiy yo'li, hayoti va faoliyatiga bir yoqlama, ya'ni, xolisona nuqtai nazardan yondashmaganliklarini kuzatishimiz mumkin. Mustaqillik yillarida buyuk ajdodlarimizning ilmiy asarlari va bebaho boy ma'naviy merosini o'rganish ishlariga keng imkoniyatlar yaratildi. Buning natijasida Alisher Navoiy ijodiga ham xolis baho berilib, navoiyshunoslik sohasida yangidan-yangi fundamental tadqiqotlar amalga oshirila boshlandi. Mutafakkir ma'naviy merosi, xususan, uning nazmiy va nasriy usulda yozilgan durdona asarlari chop etilib, keng kitobxonlar ommasiga taqdim etildi.

Navoiyshunoslikning hozirgi davr vakillaridan hisoblangan bir qator olim va tadqiqotchilar A.Xayrullaev, H.Aliqulov, N.Komilov, D.Salohiy, Sh.S.Sirojiddinov, B.Eraliev, I.Haqqul, K.Mullaxo'jaeva, E.Ochilov, A.O'rinboev, I.Pardaeva va M.Pardaevalar o'z asarlarida Alisher Navoiy ijodiga katta ahamiyat berib, shoir ma'naviy merosining turli qirralarini tahlil qildilar.

O'zbek tili va adabiyotining shakllanishi hamda rivojlanishiga Lutfiy, Atoiy, Haydar Xorazmiy, Sakkokiy kabi mumtoz adabiyotimizning yirik vakillari salmoqli ta'sir ko'rsatganlar. Ayniqsa, ularning xizmatlari, Alisher Navoiy tomonidan ham qayd etilgan. Bu allomalar asarlarida insonning qadr-qimmat, sha'ni, insonparvarlik, atrofdagi voqelikning go'zalligi, hayot quvonchlari va ezgulikka intilish kabi fazilatlar ulug'langan.

Alisher Navoiydagi boy falsafiy dunyoqarashning shakllanishida ustoz, do'sti va maslakdoshi Abdurahmon Jomiyning xizmatlari benihoya yuksakdir. Akademik Ye.E.Bertels to'g'ri ta'kidlaganidek, O'rta asr Sharqidagi ikki titanlar(daholar)ning uchrashuvi do'stlikka aylangan va Jomiy vafotigacha davom etgan. Ularning do'stligi, dunyoqarashlarining yaqinligi, adabiyot va til taraqqiyoti muammolariga qarashlarning to'liq mos kelganligi bilan mustahkamlandi.²

Jomiy va Navoiy o'rtasida juda yaqin do'stona va ustoz-shogirdlik munosabatlari mavjud bo'lgan. Abdurahmon Jomiy Navoiyga falsafaga oid ko'plab asarlarni o'rganish jarayonida yaqindan yordam berib, doimiy hammaslagiga aylangan. Alisher Navoiy yoshligidayoq "Fusus ul-hikam" asarining muallifi Ibn Al-Arabiy kontseptsiyasi aks etgan Faxriddin Iroqiyning "Lamahot" asarini

¹ Бертельс Е.Э. Избранные труды. Т. 4: Навои и Джами. – Москва: Наука, 1965. – с.431.

² O'sha asar. b.124.

o'rganishda Jomiydan yordam so'ragan. Shuning uchun, Jomiy Alisher Navoiyga bag'ishlab Iroqiy asariga sharh bo'lgan "Ashiat-al-lamaat" asarini yozgan.

Alisher Navoiy bizga boy ma'naviy meros qoldirilgan. Uning asarlari turli mavzular tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, ular orasida she'riyat, falsafa, tilshunoslikka doir masalalar birlamchi rol o'ynaydi. Bunday masalalar orqali mutafakkir o'z davridagi turli maishiy muammolarga oqilona yechim topib, zamonaviylik muammolarga yangicha yondashuvlar bilan javob berishga harakat qiladi. Ustozi Abdurahmon Jomiy uning buyuk iste'dodi, she'riyatiga baho berar ekan, shu paytgacha o'zining shogirdi va do'sti Alisher Navoiydek o'zbek, fors va tojik tillarida shu qadar ko'p va xo'p yozgan kishi bo'lmaganligini ta'kidlaydi.¹

Alisher Navoiy o'zining "Saddi Iskandariy" dostonida qadimgi yunon madaniyati xazinalariga bo'lgan hayratini juda chiroyli va manzarali tarzda tasvirleydi. U qadimgi yunon mutafakkirlari, faylasuf va donishmandlari Suqrot, Aflotun hamda Arastularning ijodi bilan yaqindan tanishadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Abu Nasr Farobiy ijodi Alisher Navoiy falsafasidagi ijtimoiy qarashlarning shakllanishiga alohida ta'sir ko'rsatdi. Bizning fikrimizcha, Alisher Navoiydagi tabiiy-falsafiy dunyoqarashning rivojlanishida buyuk faylasuf, tabib va mutafakkir Abu Ali ibn Sino asarlari sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Albatta, Ibn Sinoning ontologik dialektikasi Alisher Navoiy qarashlariga yaqin edi, chunki o'sha davr mutafakkirlarining falsafiy qarashlari diniy xarakterda bo'lgan.

Alisher Navoiyning ma'naviy merosi o'z mazmuniga ko'ra xilma-xil bo'lib, u Sharq xalqlarining an'anaviy madaniyati, adabiyoti, falsafiy g'oyalari bilan chambarchas bog'liqdir. Uning ma'naviy merosida folklor, falsafiy-axloqiy, ilmiy va nazariy qarashlar bir-biri bilan uzviy ravishda bog'liq va shoirning so'z san'ati bilan uyg'unidir.

Alisher Navoiyning ma'naviy merosi Markaziy Osiyo xalqlarining an'ana va qadriyatlari, boy adabiy xazinasini va ijtimoiy-falsafiy kontseptsiyalaridan oziqlangan. Navoiy olamni anglash muammosida, xususan dinda ma'rifat ustuvorligi tarafdori bo'lgan. U shu davr mafkurasi bo'lgan toat-ibodatni haddan oshib ketishi ma'rifatga o'rin qoldirmasligini "Nazm ul-javohir"da kinoyali tarzda shunday ifodalaydi:

Gar ma'rifat o'lsa chorasoz yaxshi,
Toat ko'pidan ma'rifat ozi yaxshi ²

Bu bayt shunday mazmunga ega: "Agar, har bir masalaga ma'rifat bilan yondashilsa uni chorasi topiladi, lekin, ilmu-ma'rifat muammolari yechimi yetarli bo'lmasa yoki ma'rifiy yondashuvlar ixtilof keltirib chiqarsa, bunday holda ma'rifatdan itoat yaxshiroq"³ dir. Bu Navoiyning o'z davrida olam, borliqqa falsafiy munosabati, jaholatga qarshi munosib va murosasiz qarashi, deyish mumkin. Shoir asarlarining deyarli hammasida ana shu kabi kayfiyat va qarashlar ustuvor ekanligini ko'rish mumkin.

¹ Джами. Лирика. Поэмы. Весенний сад. – Душанбе: Изд-во Адиб, 1989. – Стр.654.

² Навоий. А. МАТ: 20 томлик. 15 т. Назм ул-жавоҳир. -Тошкент: "Фан", 1999. –Б. 157.

³ O'sha asar. b. 232.

Sharq ijtimoiy falsafasi uzoq tarixga ega. Sharq mutafakkirlari asarlarida fazilat ilmi amaliy fanning maqsadi deb hisoblangan, axloqiy tamoyillar va qonunlarni amaliyotga tadbiiq etish har bir insonning eng oliy ma'naviy burchi sifatida e'tirof etilgan. Bu o'rinda axloq masalalari markaziy o'rinni egallagan. Arab tilida so'zlashuvchi mutafakkirlarning asarlarida axloq ilmi inson xulq-atvori normalari va qoidalari tizimi, uning nazariy asoslari sifatida aniq ajratib ko'rsatilgan¹.

Farobiyning izdoshlari hisoblangan Beruniy, Ibn Sino, Ibn Rushd va boshqa olimlarning asarlari inson va jamiyat muammolari, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi hamda amal qilishi qonuniyatlariga bag'ishlangan. Ularning asarlarida ushbu muammoni hal qilish haqiqatni bilishga oqilona yondashuv nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgan².

Tasavvuf ta'limotini Sharq ijtimoiy-falsafiy tafakkuri taraqqiyotidagi asosiy yo'nalishlardan biri deb hisoblash mumkin. Buyuk mutafakkir va faylasuf Alisher Navoiy yashab ijod etgan davrda Markaziy Osiyoda tasavvufning ma'naviy-axloqiy va umuminsoniy g'oyalarini o'ziga singdirgan hamda mujassam etgan naqshbandiylik ta'limoti keng tarqalgan edi. Naqshbandiylik tariqatidagi g'oyalar Alisher Navoiyning ijodiy dunyoqarashiga juda katta ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, ayrim tadqiqotchilar Navoiyni so'fiy emas, balki mutassavif, ya'ni so'fiylarga ruhan yaqin, deb hisoblaydilar. Ba'zi olimlar Navoiyni so'fiylik nazariyotchisi deb atasalar, boshqalari esa uni bevosita so'fiylik ta'limotining yirik amaliyotchisi sifatida e'tirof etadilar.

Tadqiqotlarimiz asosida shuni alohida ta'kidlash joizki, tasavvuf ta'limoti mutafakkirning ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy dunyoqarashiga yuksak darajada ta'sir ko'rsatgan va bevosita uning ko'plab asarlarida namoyon bo'lgan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Navoiyshunoslik sohasining yirik vakillaridan biri bo'lgan Oybek o'z tadqiqotlarida mutafakkirning so'fiylikka e'tiqodi haqida so'z yuritarkan, Navoiyning koinot, inson va uning hayoti mazmuniga daxldor bo'lgan ko'plab muammolar haqida ham fikr bildirganini ta'kidlagan³.

Alisher Navoiy ma'naviy merosi va irfoni dunyoqarashining muhim unsuri bo'lgan tasavvuf ta'limotida qadimgi axloqshunoslik, arab-musulmon Sharq falsafasi va folklori o'zaro chambarchas holda namoyon bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Alisher Navoiy falsafasining asosiy muammolari”** deb nomlangan bo'lib, bu bobda Alisher Navoiy ijtimoiy-falsafiy qarashlari Imom G'azzoliy, Farididdin Attor, Bahouddin Naqshband, Abdurahmon Jomiy va o'sha davrdagi boshqa ko'plab mutafakkirlarning asarlarida targ'ib etilgan akmeologik ruhdagi g'oyalarni o'ziga singdirgan. Farididdin Attorning falsafiy va epistemologik (gnoseologik) qarashlari uning “Mantiq ut-tayr” asarida yorqin tarzda namoyon bo'lgan. Uning ushbu asarini asosiy boshlang'ich nuqtasi haqiqatni izlashdir.

¹ Ўзбекистон фалсафаси тарихи. Т. МUMTOZ SO'Z. 2017. 2 жилд. 531 б.

² Арипов М. Гуманизм Алишера Навои. Т. Узбекистан, 1991. С.63.

³ Ойбек. Навои ғазалиёти //Ўзбек тили ва адабиёти. Т. 1961. № 5 б.23.

Alisher Navoiy ma'naviy merosida ham borliq, bilish, haqiqatni anglash muammolari asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Mutafakkirning epistemologik (gnoseologik) g'oyalarini aniqlash uning dunyoqarashi va ijodiy yo'lini ilmiy idrok etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Vahdat ul-vujud” kontseptsiyasidan kelib chiqadigan Xudo va inson o'rtasidagi o'zaro munosabat g'oyasi Alisher Navoiyning butun ijodidan qizil ip kabi o'tadi. Uning keksalik yillarida yozgan “Lison ut-tayr” asari epistemologiya (gnoseologiya) masalalariga bag'ishlangan. Bu asar, go'yoki, Alisher Navoiyning so'fiylik tushunchasi mohiyatini ifodalovchi so'nggi asaridir¹. Shuningdek, “Hayratul-abror”da, insonning beshta sezgilari ta'riflanib:

*Bosirau somiau lomisa,
Zoyiqau shomma bila xomisa.
Harneki olamda bo'lar mudraki,
Kimdaki idrok munga yo'q shaki.*

1. Ko'zlar, ko'rish qobiliyatiga ega a'zolar (bosira);
2. Quloqlar, eshitish a'zolari (some');
3. His etish a'zolari (lomisa);
4. Hid bilish a'zolari (shomia);
5. Tam bilish, ta'mni his qilish a'zolari (zoiqa)².

Yana “Hayratul-abror”da:

*Qayda zuhur aylasa mohiyati,
Muzmar erur zotida xosiyati³ deyilgan.*

Bu baytda qaerdaki borliqning qaerida ashyolar shaklu-shamoyili zohir, ayon bo'lsa, uning tarkibi, mazmunidagi xosiyat yashirin bo'ladi. Bu yerda ashyolarning shakli zohir bo'lsa-da, ammo ularning ichki mazmun-mohiyati, xosiyati sirligicha (muzmar) qoladi, deyilgan.

Alisher Navoiy o'zining falsafiy-tasavvufiy ruhdagi ushbu asarida o'zining qarashlarini bayon etgan holda ishq mavzusiga asosiy e'tiborini qaratadi. Mazkur asar o'zaro joy talashgan qushlar yig'ini haqidagi rivoyat bilan boshlanadi va shu bilan har holda bir tizimga ehtiyoj borligini ko'rsatadi. Mutafakkir ushbu asarning so'nggi qismida ilohiy ruh har birimizning qalbimizga singdirilgan, shuning uchun o'zligini bilish, anglash orqali Xudoni inson qalbidan izlash kerak, degan asosiy g'oyani ilgari suradi. “Lison ut-tayr” dostoni shartli ravishda ramziy bo'lib, u orqali dunyoni bilish jarayoni aks etadi. Alisher Navoiy o'zining bu asarida Fariddin Attordan farqli o'laroq, emanatsiya nazariyasidan keng foydalanadi, unga ko'ra, dunyodagi hamma narsalar va inson ruhiyati koinotdagi ilohiy ruhning emanatsiyasidan (tugashidan) boshqa narsa emas. Ammo aql va individual mavjudlik faqat insonga xosdir, shuning uchun ham faqat insonga o'z Yaratuvchisi bilan muloqot qilish, uning bu dunyoda mavjudligini o'z-o'zini anglash orqali bilish qobiliyati berilgan. Ruhning transtsendentligi, barcha fazilatlarini ro'yobga chiqarishga tayyorlik g'oyasi foniy holatiga yetgan so'fiylarga xos xususiyatga

¹ Алишер Навои. Собрание сочинений в 10 томах. Язык птиц. Т VIII. Т.Фан. 1968. С.263.

² Захидов В. Мир идей и образов Алишера Навои. Государственное издательство художественной литературы УзССР. Ташкент. 1961. С.199.

³ Навоий. А. МАТ: 20 томлик. 7 т. Хамса: Ҳайрат ул-аброр. – Т.Фан. 1991. – Б. 392.

aylanadi. Navoiy o‘z asarida fano ahvoli namoyishi sifatida barcha dunyoviy narsalardan voz kechib, Allohni bilish yo‘lida o‘zini qurbon qilishga tayyorlik ramzi sifatida soqolini ildizidan sug‘urib olgan Shayx Abbos masalini keltiradi.

Xususan, Alisher Navoiyning “Badoe’ ul-bidoya” devoni «Ashraqt min aksi shamsil ka’si anvorul xudo...» matla’li g‘azalda bilan boshlanadi. Shoir bu g‘azalda diniy-sufiyona qarashlarini badiiy-falsafiy jihatdan teran umumlashtirgan, ilohiy muhabbat, ilohiy sog‘inch tuyg‘usini mukammal aks ettirgan. G‘azalda ilohiyotga oid qarashlar may, soqiy, jom kabi badiiy timsol va tushunchalar yordamida majoziy ifodalanadi. Akademik A.Rustamov bu g‘azalni o‘rganib, uni «Xazoyin ul-maoniy» kulliyotini ochuvchi Fotiha g‘azal deb baxolaydi¹. Ushbu g‘azal Navoiy hamdlari, orifona va oshiqona g‘azallarini o‘rganishda ham muhim ochqich bo‘lishi mumkin. Baytdagi yor, Quyosh, may, jom kabi timsol va tushunchalar mohiyati g‘azalning o‘zidayoq oydinlashgan.

*Ashrakat min aksi shamsil-ka’si anborul-xudo
Yor aksin mayda ko‘r deb jomdin chiqti sado.*

Baytning nasriy bayoni quyidagicha: «Quyosh kulchasi(kosasi)ning aksidan hidoyat nurlari porlab chiqdi, undan yor aksi (jamoli)ni mayda ko‘r, degan sado keldi».². Xususan, badiiy asarlar, g‘azalarda may va ishq tushunchalarining bir-biriga o‘xshash jihatlaridan juda keng foydalanilgan.

Hazrat Navoiy hamdlarining asosi diniy-falsafiy ta’limot bilan chambarchas bog‘liq ekanligini yana misollar bilan oydinlashtirish mumkin, jumladan:

*Zixi kamol ila kavnayn naqshig‘a naqqosh
Mukavvanot vujudin vujudung aylab fosh.*

Shoir ikki olamni mukammal yaratgan Ollohga murojaat qilar ekan, yaratilgan narsalar(vujudlar)da yaratganning vujudi aks etayotganini samimiyat bilan e’tirof etadi. Bunda mutafakkir so‘zning shakliy tomonlari bilan bog‘liq ishtiyoq (naqshiga, naqqosh yoki kavnayn, mukavvanot), takrir (vujudin, vujudung) kabi san’atlarni qo‘llagan Shuningdek, u olam, aniqrog‘i, ikki olamning yaratilishi haqidagi qarashlarga tayanadi.

Navoiy Olloh go‘zalligining zuhuroti xaqida fikr yuritganda, bu zuhurotni faqat ishq vositasida ko‘ra olish mumkin, degan qarashga asoslangan. Ishq va may xususiyatlarining bir-biriga juda yaqinligi shoirning e’tiborini tortgan.

*G‘ayr naqshidin ko‘ngul jomida bo‘lsa zangi g‘am,
Yo‘qtur, ey soqiy, mayi vahdat masallik g‘amzudo.*

Mutafakkir asarlarida Quyosh, zarra, gul, bulbul, sham’, parvona, dengiz (bahr), mavj, qatra, xubob kabi badiiy-ramziy timsollar hamda xusn, zot, sifat, zuhur, azal va abad, baqo va fano, bud va nobud, makon va zamon, mir’ot kabi diniy-sufiyona timsol va tushunchalardan foydalanilgan. Ular shoir ijodiy niyatini ifodalashda muhim vositalar hisoblanadi. Shuningdek, asarlardagi “dard”, “kasrat”, “vahdat”, “may”, “sog‘ar”, “samandar yog‘i”, “ajdar”, “Afridun ganji”, “dev”, “Sulaymon xotami”, “tilsim”, “Jamshid jomi”, “Xizri rah”, “zulmat”, “hayot suvi”,

¹ Алийбек Рустамий. Адиблар одобидан адаблар. Тошкент: Маънавият, 2003. 54-бет.

² Комилов Н. Маънолар оламига сафар: Алишер Навоий ғазалларига шарҳлар.-Тамаддун. 2012. 6. 12

“oh”, “tayr naqshi”, “nafyi vujud”, “nangi vujud” kabi tasavvufiy istiloh va tafsillar komil insonning ma’naviy-ruhiy kamolotini ifodalashda qo‘llanilgan.

Umuman olganda, Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” dostonini Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostonining mantiqiy davomi sifatida boshlagan va chuqur falsafiy ma’noga ega bo‘lgan tasavvuf ruhdagi mustaqil asar yaratgan. Bu asardagi asosiy g‘oya inson qalbining Yaratuvchi bilan birligidan iborat ekanligini anglashdan iboratdir.

Alisher Navoiy asarlarida tevarak-atrofdagi voqelikni, ayniqsa, inson borlig‘ini bilish masalalariga katta e’tibor berilgan. Mutafakkir o‘z asarlarida o‘z-o‘zini bilishga e’tiborni qaratib, uni transtsendentsiyaning ma’lum bir shakli sifatida ta’kidlaydi. Alisher Navoiy inson borlig‘ining mavjudlik xususiyatini atrof olam, abadiy Mutlaq bilan birlikda ko‘radi. Bu ekzistentsial holat insonga transtsendentsial holatga intilishga imkon beradi. Insonning bu ekzistentsialligi o‘z-o‘zining aksi sifatida uning butun mohiyati, borlig‘ining o‘ziga xos fojeasini aks ettiradi¹.

Alisher Navoiy o‘z qahramonlari faoliyati orqali inson hayot va o‘lim hayotning muqarrar yakuni ekanligini tushunib, o‘sha ekzistentsial holatlarga yaqinlasha olishini ko‘rsatadi. Insonni o‘lim xavf-xatari tuyg‘usi qamrab olgan bir paytda Navoiy uni hayoti uchun mas’uliyatni to‘liq o‘z zimmasiga olishga chaqiradi. Alisher Navoiy ma’naviy merosida inson borlig‘i ekzistentsiyasi quvonch, muhabbat, o‘lim, yolg‘izlik, qo‘rquv orqali ifodalanadi. Mutafakkir ma’naviy merosida inson borlig‘i kontseptsiyasi dunyodagi tartibot muammolari bilan chambarchas bog‘liq holda tushuntiriladi. Mutafakkirning ontologik qarashlarida dunyo zaruriy mavjudlik sifatida idrok etiladi. Bunda aktsidentsiya orqali Xudo va borliqning mavjudligini namoyon bo‘lishi tushuniladi.

Alisher Navoiyning qarashlari insonning borlig‘i bilan bevosita uzviy bog‘liqdir. Mutafakkir g‘oyalarida inson olamning maqsadi va mazmuni bo‘lib, ilohiy aqlni o‘zida aks ettiradigan, o‘z individualligi va Yaratganning mohiyatiga ega bo‘lgan yagona shaxs sifatida tasvirlanadi. Alisher Navoiy o‘z ma’naviy merosida so‘fiylik timsollaridan juda ko‘p foydalanadi. Bu, ayniqsa, uning “Lison ut-tayr” asarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Asardagi muhabbat vodiysini tasvirlashda ramziy obrazlar orqali haqiqatni bilish yo‘lidagi ruhiy o‘z-o‘zini takomillashtirishdan iborat bosqichlardan biri tasvirlanadi. Alisher Navoiy haqiqatni izlashning bu yo‘lini ta’riflab beradi, buning uchun qadahdan to‘la ichish kerak, natijada inson barcha dunyoviy narsalardan voz kechadi².

Mutafakkir falsafasida Olloh insonni “Ahsani taqvim”, munosib, go‘zal shakl-shamoyil bilan yaratganligi, inson uning yerdagi xalifasi, ya’ni o‘rinbosari ekanligi tavsifi keltirilgan. Ko‘ngil tufayli Olloh insonni, ya’ni “xojani” yaratdim, deganiga ishora qiladi. Shuning uchun shoir fikricha, inson ko‘ngil bilan karomatlar qiladi. E’tiborli jihati shundaki, Navoiy asarining “Avvalgi hayrat” bobida aynan ko‘ngil mo‘jizasidan hayrati ifodalangan:

Ko‘z ochibon xoja adam shomidin,

¹ Гагарин А.С. Экзистенция и экзистенциалы человеческого бытия в современной философской антропологии. Электронный ресурс: https://www.gramota.net/articles/issn_1997-292X_2015_12-2_15.pdf

² Алишер Навои. Собрание сочинений в 10 томах. Язык птиц. Т. VIII. Т. Фан.1968. С.105.

Jon topibon tong yeli payg'omidin¹.

“Inson” so‘zi o‘rnida shoir “xoja” so‘zini ishlatgan: “xoja”, “ega”, “xo‘jayin”, degan ma‘nolarni bildirib, shoir bunda ko‘ngul egasi - insonni tushunadi.

Navoiy ontologiyasining tasavvufiy xususiyatini hisobga olib, shuni aytish kerakki, uning falsafasi irfoniy jihati bilan birga, yuksak axloqiy qolip doirasida bayon qilingan. Quyidagi baytda, olamning asosiy mohiyati bo‘lgan to‘rt unsur irfoniy-falsafiy mazmunini yechishda, aql, hislar, diniy ilmda ham to‘liq javob yo‘qligi, bu masalalar Ollohning insonlardan yashirgan maxfiy siri (asrori g‘ayb) ekanligi aytadi:

*Yo‘qki bo‘lub to‘rt anosir adam
Aqlu hisu din ila islom ham²*

Navoiyning e‘tiroficha, Olloh insonga aql nurini berdi va shu bilan boshqa hamma jonzodlardan sharif qildi, lekin, aql chirog‘ini ishq yeli o‘chirib qo‘yadi yoki xira tortishiga sabab bo‘ladi.

Mazkur tadqiqotdan ko‘zlangan asosiy maqsad Alisher Navoiyning ma‘naviy merosini falsafiy hermenevtika asosida tahlil qilib, uning semantik mazmunini ochishdan iboratdir. Mutafakkir asarlarining mazmun-mohiyatini tushunish uchun ularning tarixiy, madaniy va ijtimoiy shart-sharoitlarini qayta tiklashimiz kerak. Bundan tashqari, shoir yashab ijod etgan tarixiy davr o‘z mazmuniga ko‘ra ancha katta hajmi bilan farq qiladi. Hermenevtik yondashuvda ijodkorning ijtimoiy determinantlarini ham hisobga olish zarur. Agar Navoiy merosiga ham shu nuqtai nazardan qarasak, shoirning farovon oilada voyaga yetgani, a‘lo darajada ta‘lim olgani, nozik did va mehr-muruvvat, saxovat, olijanoblik kabi fazilatlarga ega bo‘lganligini e‘tirof etish kerak.

Falsafiy hermenevtika nuqtai nazaridan biz ko‘zlagan asosiy maqsad, bu nafaqat shoir o‘z asarlari orqali nimani yetkazmoqchi bo‘lganligini emas, balki egallagan bilimlarni yetkazish yo‘llarini ham ko‘rsatmoqchi bo‘lganligini tushunishdan iboratdir. Bularni tadqiq qilish orqali Navoiy yashagan davrning to‘liq manzarasini muvaffaqiyatli yaratishimiz mumkin. Hermenevtikaning vazifasi uning asarlaridagi qahramonlar obrazlarining chuqur ma‘nosini yuzaga chiqarishdan iboratdir.

Alisher Navoiy ma‘naviy merosining mohiyatini tahlil qilishda falsafiy hermenevtikadan foydalanishning samaradorligini ko‘rsatib o‘tish zarur deb hisoblaymiz. Ushbu yondashuvning samaradorligi shundan iboratki, mutafakkir asarlaridagi alohida lahzalar va obrazlarni o‘rganish orqali Navoiy dunyoqarashining yaxlit qiyofasini qayta tiklash mumkin. Tadqiqotda hermenevtik yondashuv har bir tafsilotni alohida g‘oya bilan to‘ldirish asosida turli detallar va qismlarni ko‘rib chiqish va bir butunga birlashtirish imkonini beradi³.

Ushbu bobda Navoiy ta‘limotini tushunishda hermenevtik metod asosida «Lison ut-tayr» asari tahlil qilingan. Masalan, dostonidagi Simurg‘ hikoyasini hermenevtik tahlil qiladigan bo‘lsak:

Ko‘rdilar o‘zni qayonkim tushti ko‘z,

¹ Навоий. А. МАТ: 20 томлик. 7 т. Хамса: Ҳайрат ул-аброр. – Т. Фан, 1991. – Б. 73.

² Навоий. А. МАТ: 20 томлик. 7 т. Хамса: Ҳайрат ул-аброр. – Т. Фан, 1991. – Б. 280.

³ Шульга Е.Н. Когнитивная герменевтика. – Москва: Институт философии РАН, 2002. С.235.

*Olloh-Olloh ne ajoybdur bu so'z.
Kim qilib Simurg' o'ttuz qush havas,
O'zlarin ko'rdilar ul si murg'u bas¹.*

Unda barcha qushlarning jam bo'lib martaba va fazilatlariga ko'ra joy talashishlari voqeasidan tortib, ularning Hudhud yo'l boshchiligida Simurg'ni izlab yetti vodiyan (Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Tavhid, Hayrat, Faqru Fano) o'tishlari va bu qushni topolmay, o'zlari simurg' (o'ttiz qush) ekanliklarini anglashlarini germenevtek tahlil qilganimizda Olam, borliq Ollohning zuhuridan iborat ekanligini bilishimiz mumkin. Qushlar (odamlar) Simurg'ni izlab (ya'ni Xudoga yetishish uchun) yo'lga chiqadilar. Xudoni izlashga umr sarflaydigan darveshlar yetti riyozat bosqichi (Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Tavhid, Hayrat, Faqru Fano)dan o'tadilar va ruhga aylangach, Xudoning vasliga yetadilar. Bunga binoan, go'yo Olloh - Quyoshdir, olamdagi barcha narsa va odamlar - uning nur, zarralaridir. Tug'ilish - zarraning Quyoshdan uzilib, nurga aylanib ketishi, o'lim esa—zarraning asliga qaytib, Quyosh bag'riga yetishidir. Germenevtik tahlilga asosan, shunday fikr paydo bo'ladiki, sayri suluk qiluvchi, ya'ni tariqat yo'lga kirgan kishi Olloh tomon yurar ekan, yuqoridagi yetti bosqichni bosib o'tgach, ruhga aylanadi va Robbisiga yetishadi. Ushbu zarbulmasal hikoyatda mana shu tasavvufiy kognitiv yo'l nazarda tutilgan.

Umuman olganda, Navoiyning ma'naviy merosini o'rganishda germenevtikadan foydalanish bizga mutafakkir asarlarining haqiqiy va yashirin ma'nosini anglashga imkon beradi. Bu esa falsafiy germenevtikaning Navoiy asarlarini tushunish va talqin qilish usuli sifatida universalligini ta'kidlash imkoniyatini yaratadi. Mutafakkir ijodiy faoliyatining kognitiv tomoni germenevtikaning ufqlarini kengaytirishga qodirdir.

Navoiy boy ma'naviy meros qoldirdi. Uning qalamiga hayotining turli yillarida yozilgan lirik she'rlar to'plami bo'lgan "Xamsa", "Xazoyin ul-maoniy" kabi nazmiy asarlari ham mansubdir. Qoleversa, Navoiy qahramonlarining har bir jasorati, ezgu ishlari ularning insonparvarlikka asoslangan bilimdonligi bilan bog'liqdir.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Alisher Navoiy falsafasining axloqiy va estetik mohiyati**" deb nomlangan. Alisher Navoiy o'z asarlarida insonning jamiyat bilan uzviy aloqasini olam taraqqiyotining uzviy zanjiridagi umumiy bo'g'in sifatida ko'rsatib o'tgan. Navoiy kontseptsiyasi insonning ma'naviy kamoloti g'oyasiga asoslangan bo'lib, u shaxsning o'z ichki tabiati bilan uzluksiz kurashi, dunyoviy vasvasalarni yengib o'tishi orqali ifodalanadi. Alisher Navoiyning tushuntirishicha, yaxshilik xalqni azob-uqubat, yo'qchilik va o'zboshimchalikdan har tomonlama himoya qilishdan iborat xayrli ishlarda namoyon bo'ladi. Navoiyning yaxshilik va yomonlik masalalariga oqilona yondashuvi shundaki, shoir ularni boshqalarning manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan muayyan insoniy harakatlar, deb biladi. Navoiy uchun katta ijtimoiy yovuzlik - bu adolatsizlik va xalqqa qilinadigan zulmdir². U faqat pok aql va dunyoga halol ko'z bilan qaraydigan kishi inson degan faxriy

¹ Алишер Навои. Собрание сочинений в 10 томах. Язык птиц. Т VIII. Т. 1968.с.283-284.

² Алишер Навои. Собрание сочинений в 10 томах. Возлюбленный сердец. Т X. Т. Фан. 1970. С.23.

unvonga loyiq, deb ta'kidlaydi¹. Bu tamoyil Alisher Navoiy falsafasining tamal toshidir.

Alisher Navoiyning axloqiy qarashlarida mehnatga munosabat, mehnatkash odamlar ishiga munosib baho berish asosiy masalalardan biridir. Umuman, mehnatga munosabat axloqning muhim tamoyili hisoblanadi. Mutafakkir falsafiy qarashlarida inson mehnatiga an'anaviy hurmat, xalq farovonligi asosiy maqsadi bo'lgan mehr-muhabbat, mehnatkashning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiy mehnatkashlarning har bir toifasi, ularning o'ziga xos xususiyatlari, odatlari va qobiliyatlarini tavsiflaydi. Mutafakkir asarlarida jamiyatning ijtimoiy mohiyati tadqiqotlarini tushunish va umumlashtirishga nisbatan ishlab chiqqan sotsiologik va falsafiy yondashuvni ko'rish mumkin.

Alisher Navoiy ma'naviy merosida inson hayotining mazmuni masalasiga alohida o'rin berilgan. Hayotning barcha rang-barangligini bilishga intilgan, jasur va dovyurak, ruhan baquvvat, qo'rqmas Farhodning qiyofasi uni Uyg'onish davri titanlari bilan bog'laydi. "Farhod va Shirin" dostonida o'z ifodasini topgan faylasufona g'oyalar uning dunyoqarashini aks ettiradi. U g'oyaviy jihatdan Uyg'onish davri kontseptsiyasiga yaqin bo'lib, insonparvar, o'zining yorug' kelajagi uchun sabot bilan kurashuvchi idealini ifodalaydi.

Alisher Navoiy ijodida hayot mazmuni va taqdirning falsafiy talqini ildizi ontologik nuqtai nazardan ham tushuntirilib, butun borliqning mohiyati sifatida ilohiylik g'oyasiga asoslanadigan so'fiylikka borib taqaladi. Mutafakkir asarlarida boriga qanoat qilish, sabr-toqat, nafsni jilovlash kabi insondagi yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni o'zida mujassam etadigan so'fiylik tamoyillarini atroflicha tahlil qilingan.

Mutafakkir o'zining ulkan ma'naviy merosida boylik, saltanat, zodagonlik, izzat-ikromdan nafratlanadigan, qalb olijanobligiga intiladigan, axloqiy fazilatlarga ega bo'la oladigan inson qadrini tarannum etadi.

Alisher Navoiyning ma'naviy merosi u yoki bu tarzda shaxs kamoloti masalasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan antropologik muammolarga borib taqaladi. Mutafakkirning komil inson to'g'risidagi modeli ontologiya va gnoseologiyaning falsafiy muammolari bilan chambarchas bog'liqdir.

Ayniqsa, mutafakkirning qarashlari shakllanishida insonparvarlik, altruizm va egosentrizm xususiyalariga ega bo'lgan so'fiylik antropologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiyning inson kontseptsiyasi uning tasavvufiy g'oyalari bilan bevosita chambarchas bog'liqdir. Mutafakkir o'z asarlarida Xudo go'zallikni aks ettiruvchi juda ko'p g'aroyib narsalarni yaratganini ta'kidlaydi. Ammo bu g'aroyibotlar tizimidagi dunyoning yaratilishidan asosiy maqsad inson edi². Alisher Navoiy o'z asarlarida insonparvarlik kontseptsiyasini shakllantirib, insonni ulug'laydi, individualligini hurmat qilishni talab qiladi, ilohiy kelib chiqishini

¹ O'sha asar. B.155.

² Алишер Навои. Собрание сочинений в 10 томах. Возлюбленный сердец. Т. X. Т. Фан. 1970. с. 15.

ta'kidlaydi, ko'pincha diniy-axloqiy tamoyillarni qo'llab-quvvatlaydi va insonni o'z-o'zini takomillashtirishga chaqiradi.

Tasavvuf ta'limotining axloqiy asoslari mutafakkirga hayot mazmunini chuqur anglash, marosim tamoyillaridan o'zini tiyishga harakat qilish imkonini berdi. Demak, "Lison ut-tayr" asarida ishq vodiysini tasvirlayotgan shoir bu orqali so'fiylikdagi yuksalish qadamlaridan biri bo'lgan Xudo yo'lidagi ruhiy kamolotni nazarda tutadi¹.

Gnoseologik nuqtai nazardan olganda, odam his qilish organlari bo'lgan ko'rish, sezish, ta'm va hid bilish, eshitish yordamida voqelikni aks ettirish qobiliyatiga ega empirik mavjudot sifatida qaraladi. Aql, o'z navbatida, individ uchun zarur, chunki u qimmatli hamma narsani tanlaydi va ularning mohiyatini bilishga intiladi. Shaxs axloqiy tarbiyasi ikki yo'nalishda – aql-idrok va ma'naviyat orqali amalga oshadi. Oqilonalik dunyo hodisalarini bilish orqali idrok etiladi, bu amaliy ko'nikmalar, kasb-hunarni egallashni taqozo etadi, ma'naviyatni egallash esa ezgu ishlar orqali amalga oshadi.

Alisher Navoiy uchun axloq, eng avvalo, amaliy fan (ilmi amaliyot) bo'lib, jamiyat a'zolarini tarbiyalashda uning ahamiyati yaqqol ko'zga tashlanadi. Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda, bu odob-axloqqa (ezgulikka) erishish, turli illatlardan himoyalanih yo'lidir. Mutafakkirning fikricha, insonning axloqiy fazilatlari tug'ma bo'lmasdan, shaxsning jamiyatdagi ijtimoiylashuvi orqali rivojlanadi. U qimmatbaxo toshlarni ajratib olganidek, insonning fazilatlari kamolot jarayonida ham shunday tarbiyalanadi².

Alisher Navoiy falsafiy merosidagi inson muammolar tahliliga xulosa yasay ekanmiz, shoirning ijodidagi olam manzarasida Yaratuvchi, tabiat va inson o'rtasida tabiiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatishni zarur deb bilamiz. Bu dunyo hodisalarining birlamchi manba - Xudodan paydo bo'lganligi asoslanadi. Uning panteistik qarashlarida Xudo, tabiat va inson yagona substantsional mohiyatga ega, deb tushuntiriladi.

Alisher Navoiy asarlarining kompozitsion qurilishi, shuningdek, obrazlar yaratilishida qadimgi yunon, fors, ellin madaniyati, shuningdek, O'rta asrlar musulmon falsafasi va ilohiyoti, Qur'on, Sunnada bayon etilgan qarashlar tizimi hamda fors tilida so'zlashuvchi shoiru mutafakkirlarning ijodi katta ta'sir ko'rsatgan. Mutafakkirning falsafiy-estetik qarashlari Farobiy, Ibn Sino singari bir qator Sharq allomalarining buyuk merosiga asoslanadi va ular bevosita shoir ijodiy merosiga shubhasiz ta'sir ko'rsatgan. Alisher Navoiyning estetik qarashlari tahlili uning dunyoqarashiga arab madaniyati va islomiy qadriyatlar ta'sirining yuqori bo'lganligidan ham dalolat beradi.

Alisher Navoiy antik davr falsafasining yirik vakili bo'lgan Arastu tomonidan ishlab chiqilgan go'zallik-yaxshilik xayrli amallar asosidir, degan kontseptsiyasiga binoan, u o'z asarlarida ezgulik-latofat-go'zallik kabi insoniy olijanob fazilatlarni tarannum etadi. O'zi yaratgan qahramonlar xarakteri va timsolidagi ulug'vorlik tamoyillarini namoyish qiladi. Mutafakkir go'zallikni be'manilik, yovuzlik,

¹ Алишер Навои. Собрание сочинений в 10 томах. Язык птиц. Т VIII. – Т. Фан. 1968. – Стр. 105, 344.

² Алишер Навои. Пять поэм. М. Изд-во худ. лит-ры. 1972. С. 331.

shafqatsizlik, xunuklik va odamlarning yomon ishlariga qarshi qurol sifatida tasvirlaydi. Go‘zallik kategoriyasidan farqli o‘laroq, xunuklik o‘zining o‘rtamiyonaligi bilan ajralib turadi, ziddiyatga kirishadi va boshqa kategoriyalarni dialektik inkor qiladi¹.

Bundan tashqari, mutafakkir ijodida fojea estetik kategoriya sifatida muhim o‘rin egallaydi. San‘at muammosi Alisher Navoiy ma‘naviy merosida markaziy o‘rinni egallagan bo‘lib, unda estetika fanining nazariy va amaliy muammolari, san‘atning madaniyat taraqqiyotidagi o‘rni, g‘oyaviy tabiati, san‘atni milliylik va umuminsoniylik nisbati masalasi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda tushuntiradi.

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” kabi dostonlarida qahramonlar portreti, ularning so‘z orqali ifodalangan tashqi va ichki siyratlari ta‘rifiga keng o‘rin ajratilgan. Shoir Shirinning go‘zalligini ta‘riflar ekan, uning yuzini atirgulga, kipriklarini tikanga qiyosladi, o‘zini esa oylar orasidagi oftob, deb atadi. Shirinning nigohidan Farhod es-hushini yo‘qotadi, Navoiy qahramonining go‘zalligi uni shunday hayratda qoldiradi².

Mutafakkir insoniy go‘zallikni anglash, his etish odob-axloq masalalari bilan chambarchas bog‘liqligini tushuntiradi. Mutafakkir o‘zining birorta asarida go‘zallik g‘oyasini chetlab o‘tmaydi. Alisher Navoiyning ma‘naviy merosini tahlil qilar ekanmiz, mutafakkir asarlaridagi go‘zallik kategoriyasi jamiyat manfaati uchun harakat qiladigan insonning fazilati, insonparvarligi va yuksak axloqiy harakatlaridir, degan xulosaga kelish mumkin. Mutafakkir uchun go‘zallik – bu predmetlar va voqelik hodisalarining tashqi atributlaridir. Alisher Navoiyning daholigi oqilona dunyoqarash va go‘zallikning estetik ideali sintezida namoyon bo‘ldi. Yuqoridagilarga asoslanib, shunday xulosaga kelish mumkinki, estetikaning hamma kategoriyalari mutafakkirning ma‘naviy merosida o‘z aksini topgan. Alisher Navoiy ma‘naviy merosini tahlil qilish buyuk allomaning estetik g‘oyalari antik davr faylasuflari, Sharq mutafakkirlari estetik-axloqiy qarashlariga asoslangan, degan xulosaga kelish mumkin.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi **“Alisher Navoiy ijtimoiy-falsafiy merosining rivojlanishi”** deb nomlanadi. Alisher Navoiyning ko‘plab asarlari u yoki bu tarzda ijtimoiy muammolar va ularni hal qilishga bag‘ishlangan. Chunki shoir ayni paytda jamiyat taraqqiyoti haqidagi xulosalarini amaliyotda qo‘llagan yuqori martabali amaldor edi. Alisher Navoiy asarlarida XV asrda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, rivojlantirish masalalariga atroflicha to‘xtalib o‘tilgan. Alisher Navoiy do‘sti va ustoz Abdurahmon Jomiyning bevosita ta‘siri ostida “Mahbub ul-qulub” asarini yozdi. Bu asar muallifning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlarining o‘ziga xos in‘ikosi edi. Mutafakkir ushbu asarda keltirilgan o‘z mulohazalarida jamoa a‘zolari duchor bo‘lgan ijtimoiy demerminantlarning sababini aniqlashga harakat qilgan³. Navoiy bu asarida jamiyat ijtimoiy

¹ Бычков В.В. Эстетика. М. Гардарики, 2002. С.206.

² Алишер Навои. Собрание сочинений в 10 томах. Фархад и Ширин. Т IV. Т. Фан.1968. С.135.

³ Алишер Навои. Собрание сочинений в 10 томах. Возлюбленный сердец. Т. X. Т. Фан. 1970. с.7.

tabaqalarining tasnifini berib, ularga aniq ta'rif beradi, bir vaqtning o'zida mulohazalar yuritadi va ma'naviy-axloqiy ko'rsatmalar beradi.

Navoiy o'z asarlarida shohlar, shahzodalarni adolat, ma'rifat, zulm qilmaslik, inoqlik, do'stlikka chaqiradi. Xalqni mehnatsevarlik, halollik, insofililik, ilm olish va sabr-toqatga undaydi. U odil shohlarni orzu qiladi, hukmdorlarning oddiy xalqqa bosh bo'lib cho'llarga suv chiqarish, ilm o'rganish, insof, diyonatga da'vat etadi. Poraxo'r, mansabdorlar, ikkiyuzlamachi, aldamchilarni hajv va tanqid qiladi. Bu bilan kishilarni ezgulik, yaxshilikka undaydi. Jumladan:

*Oni bashar xaylining insoni bil,
Odamiylar odamiysi oni bil¹*

(ya'ni, xalqqa foydasi tekkan odamlar haqiqiy inson bo'ladi. Aniqrog'i, dili, ko'zi, so'zi, o'zi pok bo'lgan odamni chin inson desa bo'ladi). Vatanga, yerga, mehnatga muhabbat tuyg'ularining ulug'lanishi Navoiy asarlarining asosiy g'oyasi hisoblanadi.

Alisher Navoiy jamiyatning ijtimoiy tuzilishini o'ttizdan ortiq tabaqaga bo'lib, ulardan ba'zilarini jamiyat uchun foydali deb bilishi, ba'zilarini esa inson deyishga noloyiq, deb kuchli nafrat va g'azab bilan qarashini ko'rishimiz mumkin².

Mutafakkir jamiyat ijtimoiy hayotining tajribali tadqiqotchisi sifatida mamlakat ichidagi ijtimoiy munosabatlarning muhim xarakterli jihatlarini ta'kidlab, o'z davridagi jamiyat ijtimoiy tuzilishining xususiyatlarini ochib berishga harakat qiladi. Shoir tomonidan hokimiyat tepasida turganlardan tortib, savdogarlar, bozordagi dallollar, shuningdek, sarson-sargardon lo'lilargacha bo'lgan muayyan ijtimoiy qatlam va guruhlarning faoliyat turi va turmush tarziga siyosiy baho beriladi.

Alisher Navoiyning ijtimoiy kontseptsiyasiga asos bo'lgan qarashlarida davlat arboblarning asosiy tamoyillari va xususiyatlarini belgilab beruvchi axloqiy qadriyatlarning mavjudligi muhim o'rin tutadi. Shoir nazdida adolatsiz hukmdor shuhratparastlik va izzat-ikromga o'ch shafqatsiz zolimdir.

Alisher Navoiy o'z asarlarida jamiyatdagi barqaror tinchlik va osoyishtalik hamda uning sub'ektlari farovonligiga bog'liq bo'lgan adolatli hukmdorning idealini shakllantirdi. Uning hukmdori donishmand, olijanob bo'lishi, ruhi bilan zohidga o'xshashi, o'zga yurtlar hukmdorlari oldida shoh, odamlar bilan muomala qilishda oddiy bo'lishi kerak edi. Unda kambag'allarning og'irini yengillashtiradigan odamiylik va insonparvarlik sifatlari mujassam edi. Bunday hukmdor o'z tamoyillari asosida uzoq vaqt xalqi bilan birga baxtli yashasin, ularga quvonch va baxtli hayot olib kelsin³, deb bunday hukmdorlarni sharaflaydi.

Alisher Navoiy o'z ma'naviy merosida tarannum etgan insonparvarlik, adolat, mehr-oqibat, yurt ravnaqi, yoshlarni barkamol insonlar etib tarbiyalashga doir melioristik(taraqqiyot to'g'risidagi)g'oyalari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan hozirgi o'zgarish va islohotlarda o'z ifodasini topmoqda. Zero,

¹ Навоий. А. МАТ: 20 томлик. 7 т. Хамса: Ҳайрат ул-аброр. – Т. Фан. 1991. – Б. 258.

² Алишер Навои. Собрание сочинений в 10 томах. Смятение праведных. Том III. – Ташкент. Фан. 1968. с.44.

³ Алишер Навои. Собрание сочинений в 10 томах. Возлюбленный сердец. Т. Фан. Т X. – Ташкент, 1970. –с.12.

bunday jarayonlarning bosh mezoni inson manfaatlari, qadri, ijtimoiy adolat va progressiv taraqqiyot uchun juda ahamiyatlidir.

“Farhod va Shirin” asaridagi Abdulfavoris Shohg‘arib Bahodirga bag‘ishlangan bobda, shahzodaning ilm-ma’rifatga oshno ekanligi, saltanatning barqarorligi, Iskandarning olimlar bilan bamaslahat faoliyat yuritganligi, o‘zi ham olim bo‘lganligi, temuriy sulton Mirzo Ulug‘bekning falakiyot ilmi sohasidagi xizmatlari dunyoga ma’lum va mashhur yulduzlar jadvali “Zijji Kuragoniy” to‘g‘risida dalillar keltirgan. Aynan shu bobda Navoiyning shoh baytlaridan biri keltirilgan:

*Erursen shoh – agar ogohsen sen,
Agar ogohsen sen – shohsen sen¹*

Mazkur tadqiqot ishidan ko‘zlangan asosiy maqsad Navoiy ma’naviy merosida aks etgan ijtimoiy-siyosiy g‘oyalarning mohiyatini ochib berishdan iboratdir. Uning mamlakatdagi ijtimoiy va siyosiy islohotlar va o‘zgarishlarga bo‘lgan qiziqishi o‘zi hamda zamondoshlarining asarlarida ham bayon etilgan. Alisher Navoiy davlat boshqaruvida eng yaxshi natijalarga erishish juda muhim deb hisoblab, xodimlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yishga katta e’tibor beradi. Shuningdek, shoir jamiyatda har bir kishiga uning imkoniyati, bilimi va salohiyatidan kelib chiqqan holda ish taqsimlash lozim, degan praksiologik nazariyani ham o‘rtaga tashlaydi.

Alisher Navoiy mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish uchun siyosiy arboblardan va din peshvolari vakillari bilan o‘zaro munosabatlariga katta ahamiyat qaratish lozimligini ta’kidlaydi. Diniy tashkilotlar, din peshvolari bilan o‘zaro munosabatlar muammosi mutafakkirning davlat boshqaruviga va siyosiy faoliyatidagi muhim voqealardan biri sifatida e’tirof etish kerak.

Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida o‘sha davrda Xurosonda mavjud bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy tuzum bilan bog‘liq o‘ta dolzarb muammolarni ko‘tarib chiqib, feodal tuzumga nisbatan bo‘lgan o‘zining salbiy munosabati, inson huquqlarini toptalishi, zulm va zo‘ravonliklarni qalamga oladi. Mutafakkir bu asarida jamiyatdagi mavjud munosabatlarning o‘zgarishi, yangilanishi haqida ijtimoiy g‘oyalarni ilgari suradi. U hukmdor va oddiy fuqarolarning jamiyatdagi o‘rni va mavqei teng bo‘lishi lozimligini ta’kidlagan holda shunday yozadi:

*... Xalqni oldingda qilib notavon,
Barchasig‘a ayladi xukmung ravon.
Xizmatinga elni zabun ayladi,
Qadlarin ollingda nigun ayladi.
Bil munikim, sen dog‘i bir bandasen,
Ko‘pragidin ojizu afgandasen².*

Alisher Navoiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlaridagi ijtimoiy taraqqiyot modeli bilan bog‘liq eng muhim narsa shundaki, u tarixdagi didaktik misollar asosida muqobil “ideal” g‘oyalarni ilgari suradi. Mutafakkir o‘zining “Saddi Iskandariy” asarida davlat hokimiyati hamda mansabdor shaxslarsiz ham fuqarolar teng va erkin,

¹Навоий. А. МАТ: 20 томлик. 8 т. Хамса: Фарход ва Ширин. Т. Фан. 1991. –Б. 360.

² Аlisher Navoi. Собрание сочинений в 10 томах. Смятение праведных. Том III. – Ташкент.Фан. 1968. с.51.

o'z mehnatlari samarasidan munosib tarzda bahramand bo'ladigan muqobil ijtimoiy tizimlar mavjudligi haqida hikoya qiladi.

Umuman olganda, Alisher Navoiyning ijtimoiy qarashlari bir qancha xarakterli xususiyatlari bilan progressiv hisoblanadi. Birinchidan, u mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzumni ochiq tanqid qiladi. Shoir haqli ravishda ijtimoiy ziddiyatlarning sababi jamiyatning adolatsiz hukmron tabaqalari, deb hisoblaydi va ularni ko'p o'rinlarda qattiq qoralaydi. Ikkinchidan, mutafakkirning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, g'oyalari didaktik va amaliy ahamiyatga ega bo'lganligi uchun, ular mamlakat aholisining aksariyati uchun tushunarli edi. Uning ijtimoiy g'oyalari davlat apparatidagi boy siyosiy tajribaga asoslanganligi bilan ham ahamiyatli hisoblanadi. Uchinchidan, uning ijtimoiy-siyosiy g'oyalari chuqur insonparvarlik bilan sug'orilgan bo'lib, mutafakkir dunyoqarashi markazida o'zining barcha afzalliklari va kamchiliklariga ega bo'lgan insonni tasvirlaydi.

Alisher Navoiyning ma'naviy merosi, shubhasiz, falsafiy tafakkur tarixi, madaniyati, o'zbek falsafasi, o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlarini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mutafakkir o'z asarlarida har tomonlama rivojlangan barkamol shaxs, uning yanada ravnaq topishi va taraqqiy etishi uchun jamiyatda shakllanishi lozim bo'lgan tinchlik, taraqqiyot, diniy bag'rikenglik g'oyalarini keng ma'noda targ'ib etadi. Mutafakkir jamiyatni umumiy voqeliklar makoni sifatida ifodalab, hech kim jamiyatdan tashqarida, undan mustaqil bo'la olmasligini ta'kidlagan¹.

Alisher Navoiyning fikricha, inson ijtimoiy muhit ta'sirida bo'lsa ham, u qo'g'irchoq emas va shuning uchun atrofida sodir bo'layotgan voqealarga befarq qaramasligi kerak. Mutafakkir o'z asarlarida ijodkor inson faoliyati, erkin fikrlay olish qobiliyati, yaxshilik va yomonlik nimaligini anglash zarurligini ko'rsatib, shaxs kamolotida ijtimoiy muhitning ahamiyatiga alohida urg'u beradi.

Mutafakkir insonlarning hatti-harakatlari va xulq-atvori asosida moddiy manfaat va aql-idrok bo'lgan ikkita asosiy belgilovchi omilni ko'radi. Bundan tashqari, moddiy manfaat insonning aql-idrokidan ustun bo'lib, shaxs harakatlarini tartibga soladi. Shoir o'zining ijtimoiy-falsafiy qarashlarida olimlar esa bu holatdan istisnodir, degan fikrga keladi.

Alisher Navoiy shaxsda axloqiy fazilatlarni tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratib, jamiyatdagi axloqiy tanazzul va ijtimoiy begonalashuv muammolarini hal etishga harakat qiladi. Shuningdek, shaxs marginallashuvi bilan bog'liq insonga xos bo'lmagan g'ayri axloqiy harakatlarni nihoyatda keskin qoralab, bunday illatlardan yiroq bo'lishga da'vat etadi.

Mutafakkir axloqiy qarashlari bevosita amaliyotga tatbiq etilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Alisher Navoiy o'z asarlarida kishilar farovonlik va baxt-saodat yo'lida jamiyat a'zolari bilan ongli ravishda o'zaro ijtimoiy murosa madaniyatiga rioya qilgan holda munosabatda bo'lishlari lozimligini uqtiradi. Uning fikricha, o'z mohiyatini bilmagan, muqum illatlar bilan kurashmagan odam hech qachon haqiqiy baxtni anglab yetmaydi, komillikka erisha olmaydi.

¹ Алишер Навои. Собрание сочинений в 10 томах. Семь планет. Т VI. Т. Фан.1968. 332 с.

Alisher Navoiyning fikricha, realizm odamlarning hatti-harakatlarida namoyon bo'ladi, natijada, insonda o'zligini o'zgartirishga qaratilgan faol ijodiy energiya shakllanadi, bu uning yaqinlari, oilasi va umuman jamiyatdagi o'zgarishlarga olib keladi.

Alisher Navoiy o'z ma'naviy merosida boshqa xalqlar, ularning madaniyati, qadriyatlari va an'alariga hurmat bilan qarashdan iborat bag'rikenglikka umuminsoniy qadriyat sifatida katta ahamiyat beradi, jamiki insonlarni tinch-totuv yashashga, insonlarning dunyoqarashiga hamda diniy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishga chaqiradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bugungi jadal sur'atlarda taraqqiy etayotgan globallashuv jarayonlarida mutafakkirning ilmiy va ma'naviy merosi butun insoniyat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Alisher Navoiyning umumbashariy g'oyalarini o'rganish va tadqiq etish, barqaror rivojlanish va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish yo'lida insonning ma'naviy fazilatlarini takomillashtirish lozimligi haqidagi g'oyalari ayniqsa bugungi kunda har qachongidanda ko'proq konstruktiv ahamiyat kasb etmoqda.

XULOSA

Dissertatsiyada amalga oshirilgan tahlillar va kuzatuvlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Buyuk o'rta asr mutafakkiri, davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning ijodi va hayot yo'lini o'rganish hozirgi davrda muhim vazifadir, chunki uning ma'naviy merosida zamonamizning ko'plab muammolari o'z aksini topgan. Alisher Navoiyning ma'naviy merosi bugungi kunda dolzarb bo'lib, unga nisbatan katta ehtiyoj bor.

2. Alisher Navoiy dunyoqarashining shakllanishi qiyinchilik va qarama-qarshiliklarga to'la bo'lgan. Bu davrning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, davlatchilik, iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi natijasida madaniyat va halqlarning ma'naviyati gullab-yashnadi. Siyosiy jihatdan olganda mamlakatda markazdan uzoqlashishga intilish istagi va separatistik tendentsiyalar kuchaygan. Bularning barchasi Alisher Navoiyning o'sha davr muammolari haqidagi qarashlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatdi.

3. Alisher Navoiyning ma'naviy merosini o'rganish va tahlil qilishni uning zamondoshlari va G'arb tadqiqotchilari boshlaganlar. Ular mutafakkirning ijodidan ilhomlanib, o'rta asrlar Sharqining gumanistik kontseptsiyalarini takomillashtirish va falsafiy tafakkurini yanada rivojlantirish uchun katta kuch sarfladilar.

4. Alisher Navoiy dunyoqarashining shakllanishiga G'arb va Sharq ijtimoiy-falsafiy tafakkuri merosi, qadimgi yunon faylasuflaridan Suqrot, Aflotun, Arastu, Sharq faylasuflaridan Abu Nasr Forobiy, ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, so'fiy mutafakkirlardan Ibn Arabiy, Fariddidun Attor, Abdurahmon Jomiy, Bahouddin Naqshbandiyning ilg'or fikrlari katta ta'sir ko'rsatdi.

5. Alisher Navoiyning ma'naviy merosida ontologiya va epistemologiya masalalarining falsafiy tahlili muhim o'rin tutadi. Ontologiya masalalarida Alisher Navoiy o'z qarashlarini vahdat ul-vujud tushunchasiga asoslagan bo'lib, u

borliqning birligi g'oyasidan kelib chiqqan, uning asosida inson haqiqatni bilishga intilishi kerak, bu esa pirovardida haqiqatni anglashga hissa qo'shadi, deb hisoblanan.

6. Alisher Navoiyning ma'naviy merosida uning o'zi transtsendentsiya yo'li sifatida ta'kidlagan o'z-o'zini bilish masalalariga katta e'tibor berilgan. Alisher Navoiyning falsafiy qarashlarida inson borlig'ining ekzistentsial tabiati ekzistentsiallar deb ataladigan sevgi va nafrat, qo'rquv va umid, imon va ajralish kabi tushunchalar orqali ko'rib chiqiladi.

7. Alisher Navoiyning ma'naviy merosini oqilona idrok etish uchun germenevtik yondashuv katta ahamiyatga ega bo'lib, bu bizga uning falsafiy, teologik va so'fiy tafakkuri sohasidagi keng bilimlarini to'liq ochib berish, qo'yilgan g'oyani yetkazishga imkon beradi.

8. Alisher Navoiyning ijtimoiy-axloqiy g'oyalari uning ko'plab asarlarida o'z aksini topgan va amaliy faoliyatida axloqiy ta'limotni haqiqatda ham amalga oshirish maqsadini qo'ygan. Alisher Navoiy o'z asarlarida inson borlig'ining olamdagi uzviylik zanjirining umumiy bo'g'ini sifatida mavjud bo'lgan ijtimoiylik bilan bog'liqligini aks ettirgan. Alisher Navoiy axloqiy kontseptsiyasi shaxsning oqilonaligi va ijodiy rivojlanishining dialektik o'zaro aloqadorligiga asoslanadi.

9. Alisher Navoiyning ma'naviy merosida antropologik muammolar, shaxsni takomillashtirish masalalari muqum ahamiyatga ega. Navoiy ma'naviy ijodidagi barkamol shaxs modeli ontologik va epistemologik masalalar bilan o'zaro bog'langan. Alisher Navoiyning antropologik kontseptsiyasi ontologik g'oyalar bilan dialektik o'zaro bog'langan bo'lib, unga ko'ra olamning mazmuni insondir.

10. Alisher Navoiyning ma'naviy merosi ellinizm va Sharq estetika fani yaratgan eng ilgor yutuqlarini o'zida mujassam etgan. Alisher Navoiy estetik qarashlarining o'ziga xosligi shundaki, uning estetik merosi shoirning axloqiy qarashlari bilan dialektik aloqadorlikda bo'lgan. Fojialilik va kulgililik shaxsning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini bilan o'zaro bog'liq edi. Navoiyda adolat nafaqat axloqiy, balki estetik kategoriya sifatida ham namoyon bo'lgan, chunki u adolatni hukmdorlar barkamolligi, inson takomili natijasi, deb bilgan.

11. Alisher Navoiy ijodiy merosida jamiyatning ijtimoiy determinizmi masalalariga alohida ahamiyat beriladi, chunki bunda mutafakkir potentsial imkoniyatlarni shakllantirish omillarini ko'radi, ularni amalga oshirish odamlarning ongli amaliy faoliyati bilan o'zaro bog'liqdir, degan fikrga keladi. Alisher Navoiy jamiyat tabaqalanishining sababiy aloqadorligini jamiyat ichidagi ijtimoiy adolat tamoyillaridan voz kechishda ko'radi. Jamiyatning ijtimoiy tuzilishining determinizmi erkinlikni inkor etmaydi, aksincha, insonning tanlash erkinligidan kelib chiqadi.

12. Alisher Navoiyning ijodiy merosida mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy islohotlar va o'zgarishlarga katta e'tibor bilan qaralgan. Davlat tizimida katta mavqega ega bo'lgan mutafakkir bu islohotlarni amalga oshirishda o'zining katta hissasini qo'shgan. Davlat arbobi sifatida Alisher Navoiy amaliyotida diplomatiya, fuqarolik nizolarining oldini olish va jamiyatda bag'rikenglik tamoyillarini amalga oshirish masalalariga muhim o'rin berilgan.

13. Alisher Navoiyning ma'naviy merosi jamiyat taraqqiyotining zamonaviy jarayonlari, xalqimizning ma'naviy-axloqiy qadriyatlariga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Navoiy merosi Sharq va G'arb xalqlari madaniyati xazinasining kvintessentsiyasidir. Alisher Navoiyning buyuk merosi orqali o'zbek xalqi insoniyatning buyuk merosiga jalb etilmoqda.

Yuqoridagi xulosalarga asoslanib, biz quyidagi taklif va tavsiyalarni mos deb hisoblaymiz:

1. Alisher Navoiyning ma'naviy merosini ilmiy-falsafiy tadqiq etishni yanada rivojlantirish maqsadida mamlakatlarning barcha gumanitar universitetlarida Alisher Navoiy asarlarining eski o'zbek tilini o'rganish bo'yicha o'quv kursini joriy etish;

2. Alisher Navoiy ma'naviy merosini o'rganish bo'yicha xalqaro va mahalliy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Fanlar Akademiyasi tarkibida Alisher Navoiy ma'naviy merosini o'rganish bo'yicha ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etishni taklif etish;

3. Alisher Navoiyning ma'naviy merosini targ'ib qilish maqsadida, Alisher Navoiyning ma'naviy-axloqiy g'oyalarini aks ettirishi lozim bo'lgan milliy dastur va veb-saytlarni ishlab chiqish va faol targ'ib qilish;

4. Alisher Navoiy barcha asarlarining birlamchi manbalari va zamonaviy nashrlari, shu jumladan mutafakkir asarlariga lug'at va sharhlarni o'z ichiga olgan virtual katalogni ishlab chiqish va tizimlashitirish;

5. Alisher Navoiyning ma'naviy merosini xalq ta'limi tizimida yanada rivojlantirish maqsadida, tarbiyaviy soatlar doirasida mutafakkir asarlarida aks etgan komil inson haqidagi axloqiy tushunchani targ'ib yetish;

6. Alisher Navoiyning ma'naviy merosini yanada ommalashtirish maqsadida, Alisher Navoiyning falsafiy merosi bo'yicha elektron darslik va o'quv qo'llanmalarni ishlab chiqish;

7. Yosh olimlarning ilmiy izlanishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligi huzurida maxsus grantlar va Alisher Navoiy jamg'armasi tashkil etish;

8. Mutafakkir hayoti bilan bog'liq moddiy madaniyat yodgorliklarini saqlash va asrashni rag'batlantirish va moddiy qo'llab-quvvatlash maqsadida "Alisher Navoiy merosi" nodavlat jamg'armasini tashkil etish;

9. Alisher Navoiyning ma'naviy merosini yanada ommalashtirish, mutafakkir asarlari asosida grantlar, animatsion filmlar tanlovlari va virtual dasturlar tashkil etish;

10. O'zbek tili va adabiyoti, hamda innovatsiyalari sohasida ilmiy izlanishlarni rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Alisher Navoiy medalini ta'sis etish to'g'risida taklif kiritish.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА БАЗЕ НАУЧНОГО СОВЕТА DSc
03/30.12.2019. Ф. 02.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

МЕЛИКОВА МАРТАБА НУМОНОВНА

**СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ СУЩНОСТЬ ДУХОВНОГО
НАСЛЕДИЯ АЛИШЕРА НАВОИ**

09.00.03 – История философии

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФСКИХ НАУК (DSc)**

Самарканд – 2023

Тема докторской диссертации (DSc) по философским наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за номером В.2022. DSc / Fal18.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.samdu.uz) и на информационно-образовательного портала "ZiyoNet" (www.ziynet.uz).

Научный консультант:

Шодиев Рустам Тохирович

доктор философских наук, профессор

Официальные оппоненты:

Шадманов Курбон Бадриддинович

доктор философских наук, профессор

Мадаева Шахноза Омонуллаевна

доктор философских наук, профессор

Сафарова Нигора Олимовна

доктор философских наук, профессор

Ведущая организация:

**Ташкентский государственный
экономический университет**

Защита диссертации состоится "9" июня 2023 года в 10⁰⁰ часов на заседании разового совета при Научного совета DSc.03/30.12.2019.F.02.02. при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова (Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, 15. Тел.: (0366) 239-13-87; факс: (0366) 239-11-40 e-mail: rector@samdu.uz, Исторический факультет Самаркандского государственного университета, 1-этаж, 105-аудитория).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета (зарегистрировано за № 77). (Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, 15. Тел.: (0366) 239-13-87; факс: (0366) 239-11-40)

Автореферат диссертации разослан "26" мая 2023 г.
(реестр протокола рассылки № 77 от "22" мая 2023 г.)



Ш.Ш.Негматова

Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор философских наук (DSc), доцент

Х.А.Джуракулов

Ученый секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор философских наук (DSc), доцент

А.Р.Самадов

Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению ученых степеней,
доктор философских наук (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В современном мире, где происходят глобальные трансформации в области духовных и нравственных устоев общества, идет отчаянная борьба за сознание и душу человека. И потому особую актуальность имеет поиск национальной и этнической идентичности, основанной на великом наследии народов, что является настоящим сокровищем. И человечество способно из этих процессов черпать безграничную энергию, необходимую для созидания и прогресса. Перед мировым сообществом на повестку поставлен вопрос поиска путей консенсуса, социального сотрудничества, межнационального согласия и мира. В целях разработки стратегии межнационального согласия и социального сотрудничества, религиозной толерантности, преодоления негативных последствий социальной неприязни и обеспечения социального сотрудничества всего мирового социума необходимо умелое использование достижений современных социальных наук, антропологии и философии. Насущным является определение механизмов внедрения в сознание молодежи национальной идеи и обращение к духовному наследию мыслителей, внесших большой вклад в развитие национальных и общечеловеческих ценностей, мира, просвещения, веротерпимости, гуманизма, духовности и науки.

В ведущих мировых научно-исследовательских центрах ведутся широкомасштабные научно-теоретические и практические исследования, направленные на изучение и сравнительный анализ философского наследия мыслителей Востока, которое охватывает проблемы онтологии, гносеологии, антропологии человека, взаимодействий внутри социума, вопросов постижения экзистенциальной природы личности, общественного бытия индивидов, пути достижения счастья. Особенно в исследованиях, проводимых в ведущих университетах Европы и США, среди великих мыслителей Центральной Азии гуманистические, онтологические, аксиологические воззрения Алишера Навои, попытки изучить детерминантные аспекты содержательных компонентов общечеловеческих ценностей, обоснованно конструктивная роль его антропологических взглядов на изменение человеческого сознания и мировоззрения. В связи с этим становится объективной необходимостью научные исследования непревзойденного значения идей Алишера Навои о толерантности, самосознании, стремлении к духовно-нравственной гармонии в концепции гуманизма в формировании идеологического иммунитета молодежи в современных условиях глобализации общества эпохи постмодерна.

В нашей стране изучение и пропаганда духовного наследия Алишера Навои является одним из приоритетных направлений государственной политики. «Бесценное творческое и научное наследие великого поэта и мыслителя, известного государственного и общественного деятеля Алишера Навои занимает особое место не только в истории нашего народа, но и в истории мировой литературы, в развитии нашей национальной культуры и

литературного и эстетического мышления»¹. Поэтому возникает необходимость социально-философского исследования значения альтруизма, человеколюбия и гуманистических начал в творчестве мыслителя в деле воспитания молодежи на основе современных философских подходов. И в настоящее время, когда остро стоят проблемы, связанные с проникновением в сознание молодежи идей индивидуализма, эгоцентризма и вандализма, происходит переоценка национальных ценностей, особо актуальным становится исследование и пропаганда духовного наследия Алишера Навои.

Данная диссертационная работа в определенной степени способствует выполнению задач, поставленных Указами Президента Республики Узбекистан УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022 - 2026 годы» от 28 января 2022 года, УП-6017 «О мерах по коренному реформированию и поднятию на новый уровень государственной молодежной политики в Республике Узбекистан» от 30 июня 2020 года, УП-6108 «О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана» от 6 ноября 2020 года, ПП-2995 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы хранения, исследования и пропаганды древних письменных источников» от 24 мая 2017 года, ПП-3721 «Об организации среди молодежи конкурсов любителей книги в целях широкого изучения и пропаганды творческого наследия наших великих ученых, поэтов и мыслителей» от 12 мая 2018 года, ПП-4865 «О широком праздновании 580-летия со дня рождения великого поэта и мыслителя Алишера Навои» от 19 октября 2019 года, а также другими нормативно-правовыми документами, имеющими отношение к данной теме исследования.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологии республики I. «Формирование системы инновационных идей и способов их реализации в социально-правовом, экономическом, культурном, духовно-образовательном развитии информированного общества и демократического государства и пути их реализации».

Обзор международных научных исследований по теме диссертации².

Жизненный и творческий путь Алишера Навои, вопросы социально-философского, духовно-нравственного воспитания, совершенствования духовных качеств личности в трудах великого среднеазиатского мыслителя исследуются в крупнейших научных центрах, среди которых необходимо выделить Oxford University (Великобритания), 北海道大学 (Япония), Bonner

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 19 октябрдаги “Буюк шоир ва мутафаккир Алишер Навоий таваллудининг 580 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида”ги ПҚ-4865-сон қарори.//Халқ сўзи. № 219 (7690) 20.10.2020.

² Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации подготовлен на основе следующих источников: <https://www.cambridge.org/core/journals/inventing-a-national-writer-the-soviet-celebration-of-the-1948-alisher-navoi-jubilee-and-the-writing-of-uzbek-history> | International Journal of Asian Studies | Cambridge Core; <https://azertag.az/ru/xeber>; <http://www.orientalstudies.ru/>; <https://greylib.align.ru/453/>; <https://portalus.ru/modules/shkola/rus/>; (PDF) Alisher Navoi - about the State and its Governance (researchgate.net); https://www.academia.edu/5894753/Materialist_Ideology_Facing_a_Great_Sufi_Poet_the_Case_of_Ali-Shir-Nawoi и других.

